

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADR LARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi



MODULI BO'YICHA  
**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2023-yil 25-avgustidagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va  
dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** **M.J.Mutalipova** - TDPU huzuridagi tarmoq markazi  
katta o‘qituvchisi

**A.B.To‘rayev** - TDPU huzuridagi tarmoq markazi  
katta o‘qituvchisi

**M.P.Imomov** - Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent v.b.

**Taqrizchi:** **prof. Lee Yu Mi** - Seul pedagogika universiteti  
(Janubiy Koreya)

*O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi  
11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## **MUNDARIJA**

<b>I. IShChI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>75</b>
<b>V. KEYSLAR.....</b>	<b>86</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>89</b>
<b>VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: .....</b>	<b>93</b>

## **I. IShChI DASTUR**

### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldaggi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorida tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzlusiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish kabi pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shuningdek, zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlari. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlari. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) hamda

mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. Mutaxassislik fanlariga oid talabalarning o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash metodikasi bayon etilgan.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasiga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari hamda mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida ekanligini tahlil qilish;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza), amaliy (seminar, laboratoriya) hamda mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida:

#### **Tinglovchi:**

- Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalarini;
- . mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida ekanligini;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlarini;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi mazmuni va mohiyatini;
- mutaxassislik fanlariga oid mustaqil ta’lim turlarini;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat va baholashning mazmunini;
- nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha ta'limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlarini tanlash;
  - mutaxassislik fanlari bo'yicha nazariy (ma'ruza, binar-ma'ruza) mashg'ulotlarni tashkil eta olish;
  - mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
  - mutaxassislik fanlariga oid mustaqil ta'lim turlaridan foydalanish;.
  - nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalarini tanlash
- ko'nikma va malakalarini egallashi;**
- mutaxassislik fanlari bo'yicha nazariy (ma'ruza, binar-ma'ruza) mashg'ulotlarni loyihalay olish;
  - mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
  - mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish;
  - mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va o'tkazish; mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat va baholash mezonlarini ishlab chiqish **kompetensiyalarini egallashi** lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

"Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish", "Ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish", "Pedagogning mahorati va kreativligi", "Talabalar bilimini baholash" hamda "Pedagogikaning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari" kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	<b>Modul mavzulari</b>	Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	<b>Mutaxassislik fani maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.</b>	6	2	2
2.	<b>Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.</b>	8	4	4
3.	<b>Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi.</b>	6	2	4
4.	<b>Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash metodikasi.</b>	4	2	4
<b>Jami:</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1- mavzu: Mutaxassislik fani maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari. (2s.)**

Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlari. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida.

### **2-mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. (4s.)**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlari. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

**3-mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi. (2s.)**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi mazmuni va mohiyati. Mutaxassislik fanlariga oid mustaqil ta’lim turlari. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

**4-mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash metodikasi. (2s.)**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish va baholashning mazmuni. Nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalari. Mutaxassislik fanlariga oid talabalarning o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash metodikasi.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: Mutaxassislik fani maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari. (2s.)**

Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari, mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlari tahlili.. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida.

**2-mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. (4s.)**

Tarmoq mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi ishlanmasini tayyorlash. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi ishlanmasini ishlab chiqish.

### **3-mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi (4s.)**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi mazmuni va mohiyatini tahlil qilish. Mutaxassislik fanlariga oid mustaqil ta’lim turlarini aniqlash. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

### **4-mavzu:      Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash metodikasi (4s.)**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat va baholashning mazmunini tahlil qilish. Nazarot va baholashning turlari, shakllari, metod va vositalarini tanlash. Baholash mezonlarini ishlab chiqish. Mutaxassislik fanlariga oid talabalarning o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash metodikasi.

## **O‘QITISH ShAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **1. «DIALOG» treningi.**

**Treningni maqsadi:** o‘z fikr-mulohazalarini, manfaatlarini himoya qila olish malakasini shakllantirish, bu sohada o‘zida mavjud vositalarni boyitish, ziddiyatlari vaziyatlarda o‘z xatti-harakatini boshqara olish orqali kasbiy kreativlikni shakllantirish

Guruhning ikki qatnashchisiga o‘zaro dialog vaziyatida ikki xil vazifa, maqsad qo‘yiladi. Ulardan biri ikkinchisini biror- bir narsaga (Masalan: sport tugaragiga qatnashish, qaysidir badiiy kitobni mutoala qilishga, yangi kinofilmni ko‘rishga va boshqalarga) ko‘ndirishga, ikkinchisi esa unga yordam berishni butunlay rad etishga harakat qiladi. Shu bilan birga ular suhbat davomida axloq me’yorlari doirasidan chiqmasliklari, o‘z xoxishlarini ishonchli dalillashlar asosida bayon etishlari lozim bo‘ladi. Trening dialog qatnashchilaridan biri ikkinchisining fikriga bo‘ysunmaguncha davom etadi.

### **2. TUShUNChALARNI ANIQLASH**

#### **Maqsadi:**

- tinglovchilarni gapdagi har bir xorijiy tildagi so‘zni tushuna olishga o‘rgatish;
- tinglovchilarning gapdagi har bir so‘zga e’tiborli munosabatda bo‘lish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;
- o‘quv topshirig‘ini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘qituvchi izohni **tushunish** – bu tinglovchilarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur eta olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki so‘zni tushunishning birinchi darajasi.

So‘zni to‘liq tushunish qachonki, tinglovchilar narsa yoki hodisaning tuzilishiga oid tarkibiy qismlar(nimalardan tashkil topgan) va uning funksional o‘ziga

xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

### **Mashg‘ulot quyidagi tarzda o‘tkaziladi:**

1. Barcha tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘linishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi gaplardagi notanish so‘zlarni topish va izohli lug‘atlar, o‘qituvchining yordamida ularning ma’nosini izohlab berishni so‘raydi.

3. Guruhlarda matn ustida ishslash boshlanadi. Tinglovchilar birgalikda notanish, tushunarsiz so‘zlarni topishadi va ularning ma’nosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib bo‘linganidan so‘ng, “kichik guruhlarga hujum” boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qur'a tashlash yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbat bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh a’zosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan so‘ng uning to‘g‘riligi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 balldan 5 ballgacha bo‘lishi mumkin.

5. Yakunlarini chiqarish. O‘qituvchi ko‘p ball yig‘gan guruhni e’lon qilishi mumkin. Mazmuni noto‘g‘ri tushunilgan so‘zlarga izoh beriladi.

## **3. T-ChIZMA**

T-chizma munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdar/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan “Pedagogik nizolar” matnnini “tarafdar va qarshi” tamoyiliga asoslanib o‘qilganidan so‘ng, bir juft tinglovchi quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqadan keyin, chizmaning chap tomonida pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozishi mumkin. So‘ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko‘p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular

yana besh daqiqa mobaynida o‘z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

#### **4. TUSHUNCHALAR ASOSIDA MATN TUZISH**

“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini olib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma’lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallah va o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo‘ladi.

#### **5. O‘N MINUTLIK ESSE**

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiylar yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik esseni yozish qoidalari (“Zamonaviy pedagog” mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.
2. “Mahoratli pedagog deganda ko‘z oldimga ... keladi”, “Mening fikrimga ko‘ra kreativ pedagog ... bo‘lishi kerak”, “Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak” kabi jumlalardan foydalaning.
3. O‘zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo‘lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuiningizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

#### **6. “ASSESMENT” METODI**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishma topshiriqlarni kiritish mumkin.



### Тест

Педагогик фаолиятнинг қайта идрок этилишига доир компетенция қандай номланади?  
A) Ахборот олиш  
B) Когнитив  
C) Рефлексив



### Қиёсий таҳлил

“Педагогик маҳорат” ва “Педагогик креативлик” тушунчалари ўртасидаги ўхшашлик ва фарқли жиҳатларни таҳлил этинг.



### Симптом

Ўқитувчининг педагогик фаолиятга назарий тайёрлиги...



### Амалий қўникма

Педагогик техниканинг асосий элементларидан 3 тасига мисол келтиринг.

## 7. INSERT” METODI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi

yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1 - MAVZU: Mutaxassislik fani maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.**

##### **REJA:**

1. Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari.
2. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlari.
3. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida.

**Tayanch tushunchalar:** *mutaxassislik, fan, o‘quv predmet, maxsus kompetensiya, kasb, hunar, umumilmiy, umumkasbiy, o‘quv va ishlab chiqarish, Nazariya va amaliyotning birligi.*

**1. Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari.** Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalariga zamon va istiqbol talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash tom ma’noda O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Bu poydevorning qanchalik mustahkamligi hozirgi paytda oliy ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlariga bog‘liq.

Mutaxassislik fanlarni o‘rganishda ko‘proq amaliylik yuqori bo‘lganligi, o‘quv va ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi sababli o‘ziga xosligi umumilmiy fanlaridan yaqqol farqli ekanligini ko‘rsatadi. Davlat ta’lim standarti asosida tuzilgan o‘quv rejasidagi mutaxassislik fanlar o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash, fan dasturlarini oddiydan murakkabga qarab tuzish, o‘kitishning samarali metodlarini tanlash, o‘quv maqsadlarini belgilash talabalarning tanlagan kasbi bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimida mutaxassislik fanlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mutaxassislikka oid kasbiy-pedagogik kompetensiyalar asosan mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonida shakllanadi.

Bundan mutaxassislik fanlari mazmunini o‘zlashtirilishi bilan oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi bevosita bog‘liqligi kelib chiqadi. Bu bog‘liqlik eng avvalo “ixtisos”, “kasb”, “hunar”, “mutaxassislik”, “kasbiy” kabi tushuncha hamda atamalar mohiyatini aniqlab olish zaruriyatini ko‘rsatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida:

Ixtisos – (arabcha-ish - vazifa doirasi; chuqur bilimlardan xabardorlik; o‘ziga xos xususiyat). Ilm-fan, texnika, san’at sohalarida har bir mustaqil kasb; mutaxassislik; kasbiy malaka.

Ixtisosli – ilm-fan, texnika yoki sanoatning ma’lum bir sohasi bo‘yicha ixtisos olgan, bilim, malaka hosil etgan; ixtisosga oid.

Kasb – (arabcha- biror narsani o‘rganish, egallash, foyda; hunar, mashg‘ulot). 1. Ish faoliyatning ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. 2. Umuman, odat qilingan ish; odat.

Kasbiy – kasb-hunarga oid.

Mutaxassis – [arabcha – biror sohada ixtisos olgan, ixtisos egasi]. Biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan kishi, ixtisos egasi.

Hunar – [arabcha – san’at, bilim, ko‘nikma, mahorat, ustalik, kasb]. 1. Muayyan ko‘nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg‘ulot; kasb. 2. Biror ishdagi mahorat, san’at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat. 3. Odat tusidagi ish, harakat.

Hunarmand – [forscha-san’at arbobi; mohir, yuksak mahoratlari; iste’dodli, qobiliyatli]. 1. Uyida yoki o‘z do‘konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kasb-hunar egasi; kosib. 2. O‘z ish-kasbining mohir ustasi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishning maqsadi – kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning asosi hisoblanib, u ta’lim oluvchilarni mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi vazifalar ustuvor sanaladi:

1. Oliy ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma, yaratilgan shartsharoit, o‘rganish uchun ajratilgan vaqt, jamiyat va davlatning talablari hamda ehtiyojlarini aniqlash.

2. Kasbiy tayyorgarlik jarayoni ishtirokchilarining o‘zini-o‘zi rivojlantirishga oid metodikalar (amaliy topshiriqlar)ni ishlab chiqish.

3. Nazariyani amaliyot bilan o‘zaro integratsiyalab mashg‘ulotlarni tashkil etish.

4. Innovatsion yondashuv hamda unga mos o‘qitish, o‘rganish metodikasini tanlash. Bu vazifalarning ijrosi ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliyotda qo‘llanilib, ularning kompetentligi rivojlanadi hamda kasbiy madaniyat darajasigacha takomillashtirilishi ko‘zda tutiladi.

**2. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlari.** Kasbiy tayyorgarlik jarayonini o‘ziga xos tizim deb qarash, uni tashkil etuvchi komponentlari orasida funksional aloqadorlik mavjudligini e’tirof etishga imkon beradi. Mutaxassislik fanlari mazmuni amaliy xarakterga ega bo‘lib, bunda nisbatan ko‘proq kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi, shu bois shakllantirilishi ko‘zda tutilgan bilimlar yetakchi vazifaga bo‘ysundiriladi.

Ta’lim tizimida umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha yetuk rus mutaxassisi V.A. Skakunning fikricha “... malakali mutaxassislar tayyorlash mazmunining umumiyligi strukturasida umumkasbiy fanlari va mutaxassislik fanlar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Bu fanlarning mazmuni bir tomonidan umumilmay fanlari bilan, ikkinchi tomonidan esa ishlab chiqarish ta’limi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular yaxlit dialektik birlikni ifodalaydi. Bu hol umumkasbiy va mutaxassislik fanlar mazmunini ta’lim oluvchilarning umumilmay doirasidagi bilimlariga asoslanadigan, bu bilimlarini kengaytiradigan, shu bilan birga o‘quv va ishlab chiqarish ta’limi uchun asos bo‘ladigan hamda shu ishlab chiqarish ta’limi bilan boyitadigan qilib tuzishni talab etadi.

Umumkasbiy fanlari va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidasi ularni o‘rganishning shakl hamda metodlariga nisbatan alohida talablar qo‘yadi. Bu yerda o‘ziga xoslik shundan iboratki, umumkasbiy fanlari va mutaxassislik fanlarni

o‘rganishda tatbiq etilgan shakl hamda metodlardan foydalanish zarur. Boshqa tomondan esa ularning katta amaliy ahamiyatini o‘quv va ishlab chiqarish ta’limiga o‘tish uchun “eshik” ekanligini nazarda tutgan holda ishlab chiqarish ta’limi uchun xos bo‘lgan metodlar va metodik usullardan keng ko‘lamda foydalanish lozim” .

Mutaxassislik fanlarni o‘qitishda ko‘rsatmalilikdan foydalanish, umumilmiy fanlarini o‘qitishdagiga nisbatan muayyan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar umumilmiy fanlari mazmunining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni o‘rganish metodikasi bilan bog‘liq. Agar, umumilmiy fanlarini o‘rganishda ko‘rsatmalilik tartibi asosiy g‘oyani yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam bersa, mutaxassislik fanlarni o‘qitishda, jihoz yoki vositalarning tuzilishi va ishlash tamoyili, texnologik jarayonlarini va ishchi organlarining o‘zaro harakatini o‘rganish talab etiladi.

Mutaxassislik fanlarni o‘rganishda ko‘proq amaliylik yuqori bo‘lganligi, hamda ishlab chiqarishga yaqinroq hisoblanganligi umumilmiy fanlaridan yaqqol farqli ekanligini ko‘rsatdi. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodlarini tanlashda o‘quv maqsadlarini belgilash o‘ziga xoslikni talab etadi. Ta’lim oluvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mutaxassislik fanlar butunligicha shu kasb xususiyatiga mos bo‘lishi bilan birga o‘quv materiali mazmunida muayyan kasb bo‘yicha maxsus fanga tegishli faoliyat turlari to‘liq yoritilishi zarur.

Mutaxassislik fanlar mazmuni muayyan kasb yo‘nalishining tavsifiga mos tushishi, ya’ni kasb bo‘yicha bajariladigan faoliyat usullarini o‘zida qamrab olishi kerak.

Mutaxassislik fanlar mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi;

**1. O‘quv materialida texnikaga bog‘liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlar.** Bularga mahsulot ishlab chiqarish va mehnat jarayonida ishlatiladigan mashinalar va uskunalarning tuzilishlari, ishlash prinsiplari, sozlanishlari, hamda ishlatish qoidalari; mehnat vositalari, moslamalar, asboblar va ular qismlarining tuzilishlari; mehnat ob’ektlari hisoblangan mashina va uskunalarni o‘rnatish, yig‘ish, ta’mirlash, sozlash metodlari va usullari; mexanizm va detallarni qayta tiklash, hamda ta’mirlashning zamonaviy usullari yoritilgan o‘quv materiallari kiradi.

**2. O‘quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog‘liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlar.** Bularga alohida kasblarning butunligini tavsiflaydigan texnologik va mehnat jarayonlari, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va boshqarish tavsiflari; xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigienasi, hamda mehnat qonunchiligi asoslari kiradi.

**3. O‘quv materialida xom ashyo materiallariga bog‘liq masalalarni yorituvchi mutaxassislik fanlar.** Bularga ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan turli materiallar va xom ashylarning kimyoviy-fizikaviy xususiyatlari, mexanik – texnologik xossalari va tayyorlanish texnologiyasini yorituvchi o‘quv materiallari kiradi.

**4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to‘g‘risida o‘quv materiallarini o‘zida qamrab olgan mutaxassislik fanlar.** Ushbu guruhga barcha kasblar bo‘yicha malakali kichik mutaxassislarni tayyorlashda o‘rganiladigan (ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish va iqtisodiyoti asoslari) o‘quv materiallari, xo‘jalik va ishlab chiqarishni tashkil etish, yuritish, boshqarish va axborot texnologiyalari, ilg‘or uslublar va boshqalarni kiritish mumkin.

Mutaxassislik fanlarni o‘qitish o‘zining ko‘pgina belgilari, ya’ni mazmuni, maqsad va vazifalari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, o‘tkazilish joyi, jihozlanishi, shakllari, tuzilishi, ajratiladigan vaqt bilan ham umumta’lim fanlaridan keskin farq qiladi.

Mutaxassislik fanlarni o‘rganishda chizmalar, jadvallar, hisoblashlar va o‘lchashlar o‘tkazish kabi alohida kompetensiyalarni shakllantiruvchi laboratoriya – amaliy mashg‘ulotlarni, texnika va texnologiyani bevosita yoki bilvosita tasavvur etishga yordamlashadigan ishlab chiqarish mashg‘ulotlarini ham tashkil etishga to‘g‘ri keladi. Keyingi hol esa, talabalardan maxsus yo‘naltirilgan kasbiy kompetensiyalarning ma’lum darajada shakllanganligini talab etadi.

Oliy ta’lim tizimida mutaxassislik fanlar o‘ziga xos ahamiyatga va xususiyatlarga egadir. Mutaxassislik fanlar kasbiy faoliyat asosini tashkil etib, turli kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Mutaxassislik fanlarning yetakchi komponenti bo‘lib “kasbiy faoliyat usullari” xizmat qiladi. [64; 15]

Vatandosh olimlarimiz tomonidan yaratilgan “Pedagogik atamalar lug‘ati” da bu atamalar quyidagicha izohlangan:

O‘quv predmeti – u yoki bu fanning asosiy mazmunida ifodalangan didaktik asoslangan bilim, kompetensiyalar tizimi.

Bu mualliflar o‘quv predmetining tarbiyaviy ahamiyatini nazaridan chetda qoldirganlar.

**O‘quv predmeti** – o‘quv muassasasida o‘qitish uchun fanning muvofiq sohalaridan tanlab olingan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, me’yorlar va qadriyatlarning didaktik asoslangan tizimi.

**3. Mutaxassislik fanlari talabalarining maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida.** Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakli va amalga oshirish metodlari ko‘proq maqsadga, o‘rganilayotgan o‘quv materialining xarakteriga ko‘ra aniqlanadi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonining oqilona tashkil etish shakli va metodlarini aniqlash maqsadida o‘quv materiali mazmuni didaktik tahlil etilib, o‘quv materialining alohida qismini mohiyati, muhimligi uning tarkibiga kirgan tushunchalarning xarakteri va shu kabi xususiyatlarga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi.

O‘quv dasturiy materialga fundamental tushuncha va iboralar kiritilganligi nuqtai nazaridan tahlil qilib, quyidagilarga ajratish mumkin:

- Barcha kasb va mutaxassislar tayyorlashga tegishli bo‘lgan tushunchalar;
- texnik qurilmalar mohiyati va ishlab chiqarish ob’ektlarini yorituvchi o‘quv materiali. Bunga jihozlar tuzilishi va ishlash tartibining nazariy asoslari (elektrotexnika, issiqlik texnikasi, gidravlika, pnevmatika, texnik mexanika, mexanizmlar va mashina nazariyasi, materiallar qarshiligi, mashina detallari va shu kabi nazariy ma’lumotlar);
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi jihozlarning tuzilishi va ishlashi tartibini tushuntirish;
- mehnat qurollari, asbob-uskunalar, dastgohlar, moslamalar, priborlar va shu kabilar, mehnat jarayonida qo‘llaniladigan sun’iy qurilmalar;

- detallar, zvenolar, mexanizimlar, mashinalar, priborlar, apparatlar va buyumlar tuzilishining bayoni, yig'ish, qismlarga ajratish, tuzatish, tayyorlash, xizmat ko'rsatish, sinash kabilarni ifodalovchi o'quv materiallari. Bu materiallarga texnika tili hisoblangan grafik materiallar: diagrammalar, sxemalar, rasmlar, chizmalar texnologik va yo'riqli texnologik xaritalar kabilarni misol keltirish mumkin.

Ishlab chiqarish texnologiyasiga oid materiallar:

- texnologik jarayonlar asosini yoritish (qirqish nazariyasi, termodinamika asoslari kabilar);
- alohida soha yoki ixtisoslikka oid mehnat va texnologik jarayonlar mohiyatini yorituvchi materiallar;
- texnika xavfsizligi, gigiena va ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'inni oldini olish texnikasi kabilar.

Ishlov beriladigan va qo'llaniladigan material va xom ashylarning fizik, ximik, mexanik, texnologik kabi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'ziga qamrab oladi.

Yuqorida zikr etilgan guruh o'quv materiallarining muhimligi nuqtai nazaridan uning o'ziga xos jihatlaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) Tarixiylik xususiyatiga ega. 2) Kasb va mutaxassislik asosi. 3) Umumilmiy va umumkasbiy o'quv predmetlaridan o'zlashtirilganlarga tayanadi. 4) O'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga asos hisoblanadi. 5) Texnik va texnologik qurilmalar, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini, uni tashkil etish, amalga oshirish va iqtisodiy ko'rsatkichlari kabilarni yoritadi. 6) O'rghanish uchun maxsus jihozlar, qurilmalar, vositalar, shart-sharoit kabilarni talab etadi. 7) Mazmuni sabab-oqibatli aloqadorlikka, ba'zan murakkab jumboq tavsifga ega bo'lib, o'rghanish uchun nisbatan ko'p vaqt talab etadi. 8) Fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish jarayonlarini o'zida ifodalaganligi bois dinamik o'zgaruvchan bo'ladi. 9) Aniq texnologik qurilmalar va texnologik jarayonlar mohiyati yoritilganligi bois uning mazmuni amaliy xarakterga ega. 10) O'rghanish ob'ektlari har tomonlama yoritilganligi bois majmuaviy xarakterga ega. 11) Amalda kasbiy, ixtisoslik, mutaxassislik, maxsus fan sifatida qo'llaniladi. 12)

Tizimli-integrativ yondashuv hamda unga mos o‘qitish, o‘rganish metodikasini talab etadi va shu kabilar.

Yuqorida zikr etilganlarning barchasi bir tomondan ularning mazmunini tahsil oluvchilarga oqilona bayon etishni talab etsa, ikkinchi tomondan, ularni mustahkamlash, takomillashtirish, amalda qo‘llashni talab etadi.

So‘nggi yillarda respublikamiz pedagog olimlari ishlarida ixtisoslikka oid o‘quv predmetlari bo‘yicha mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga oid ulkan ijodiy ishlar olib borilmoqda. Bu ijodiy izlanuvchanlikka yo‘naltirilgan ishlarni quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin:

- uzviy aloqadorlikni ta’minlash;
- darslarni o‘tkazishda shablon va bir qoliplilikni bartaraf etish, o‘quv jarayonida turli tuzilmadagi darslarni qo‘llash;
- yangi materialni tahsil oluvchilarga yetkazish bilan uni shu darsni o‘zida mustahkamlashning turli shakllari, metod va vositalarini uyg‘unlashtirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini ta’minlashning muhim vositasi sifatida mashqlar tizimini kiritish;
- ishbilarmonlik, rolli, labirent va boshqa didaktik o‘yinlardan foydalanish;
- tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari turlari va miqdorini aniqlash;
- o‘zlashtirilgan o‘quv materialini mustahkamlashning aniq tizimi va mexanizmini yaratish;
- o‘quv materialining asosiy, bosh g‘oyani ifodalovchi tushuncha va iboralarni har tomonlama mukammal o‘rganish va mustahkamlash;
- tahsil oluvchilarni mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganishga o‘rgatish;
- tahsil oluvchilarning uy ishlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘rganilayotgan nazariy o‘quv materiallarini ishlab chiqarish ta’limi bilan uzviy bog‘lab o‘rganish;
- individual so‘rovlarni kamaytirish va frontal so‘rovlardan doirasini vaqt nuqtai nazaridan kengaytirish;
- individuallashtirish imkoniyatlarini beradigan ijodiy mustaqil ishlarni qo‘llash kabilar.

Tadqiqotlarimiz tahlil oluvchilarda kasbiy – politexnik va kasbiy -texnikaviy tushunchalarni shakllantirish uchun mutaxassislik fanlarining mazmunini modernizatsiyalash va o‘quv maqsadini belgilashda kasbiy politexnik tamoyillarga ya’ni ma’lum bir ishlab chiqarish sohasi bo‘yicha jihozlar va mashinalarning ishlash tartiblari; ishlab chiqarish texnologiyalarining bajarilish ketma-ketligi; kasbiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy asoslari; soha bo‘yicha mehnat faoliyatining iqtisodiy tamoyillariga rioya qilish lozim degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Izlanishlarimiz natijasida mutaxassislik fanlari mazmunida boshqa o‘quv predmetlaridan farqli ravishda o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan quyidagi jihatlar ham aniqlandi:

**Nazariya va amaliyotning birligi.** Odatda, mutaxassislik fanlarining o‘quv dasturida amaliyotdan avval nazariya o‘qitilishini talab qiladi. Ammo mutaxassislik fanlarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi kerak. Shuning uchun ham mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv materialining nazariy qismini shakllantiruvchi mualliflar o‘quv dasturidagi amaliy mashg‘ulotlar mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish shart-sharoiti bilan ham tanish bo‘lishi va uni hisobga olishi shart. Shuningdek, amaliy qism bo‘yicha o‘quv materialini shakllantiruvchilar talaba qanday nazariy bilimga ega ekanligidan xabardor bo‘lishlari kerak.

**Predmetlararo aloqadorlik.** Barcha mutaxassislik fanlari o‘qituvchilar o‘z tahlil oluvchilarining kelajak hayotda, jamiyatda va kasbiy faoliyat dunyosiga kirishib ketishlarini istaydi. Mualliflar turli o‘quv predmetlari sohalarini bir-biri bilan bog‘lab barcha sohalarda foyda keltiradigan bilim, kompetensiya berishni o‘ylashlari kerak. Shu sababli ham mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy majmular va darsliklarni yaratishda o‘quv rejasidagi boshqa o‘quv predmetlar bilan ham bog‘liqlik o‘rnatalishini nazarda tutish lozim.

**Misollar, amaliy xarakterli topshiriqlar.** Oliy ta’lim tashkilotlarida tahlil olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilim olishlari, balki o‘z nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni bilishlari muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv uslubiy majmular va o‘quv adabiyotlarini yaratishda mualliflar

quyidagilarga e'tibor berishlari kerak: muammolarni hal qilish; tadqiqotlar olib borish; turli vaziyatlar va holatlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish; tajribalar o'tkazish va mashqlar bajarish; ijodiy faoliyat ko'rsatish, yangiliklar yaratish, ixtiro qilish kabilar.

Yuqoridagilarning aksariyati oliy ta'lif tashkilotlari tahsil oluvchilariga matn o'qish va savollarga javob berishdan ko'ra ko'proq mos keladi. Amaliy mashg'ulotlarda tahsil oluvchilarni amaliy muammo, topshiriq yoki vazifani tahlil qilish, ularning yechimini topish va amalda qo'llashni o'rgatish mumkin.

**Tasviriy materiallar.** Mutaxassislik fanlarining asosiy xususiyatlaridan yana biri fanning mazmunini yoritib berishga xizmat qiladigan tasviriy materiallardan foydalanish darajasi yuqoriligidadir. Masalan, darslikda turli ob'ektlar rasmlari, texnologik jarayonlarning bajarilish ketma-ketligini ko'rsatuvchi sxemalar, mahsulot ishlab chiqarishning o'sish ko'rsatkichlarini tasvirlovchi diagrammalarning berilishi o'quv matnnini tushunishni yengillashtiradi.

Chizmalar, sxemalar, rasmlar, grafik va diagrammalar oddiy ma'lumot yetkazib berishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki, tasviriy materiallar talabani o'quv predmetiga qiziqishini orttiradi.

?	<b>NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR:</b>
---	---

1. Oliy ta'lif tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
2. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo'yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlarini tushuntiring.
3. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida izohlab bering.
4. "Ixtisos", "kasb", "hunar", "mutaxassislik", "kasbiy" kabi tushuncha hamda atamalar mohiyatini tushuntiring.

5. Mutaxassislik fanlar mazmun va mohiyatiga ko‘ra qanday guruhlarga ajratiladi?

## **2 - MAVZU: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.**

### **REJA:**

1. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlari.
2. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.
3. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

**Tayanch tushunchalar:** Kasbiy ta’lim-tarbiya, ta’limning innovatsion shakli, metodika, ta’lim shakllari.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida ta’limning tashkiliy shakllari turlicha bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridanoq, ya’ni yoshi ulug‘, hayotiy tajribasi katta kishilar yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan qilib ta’lim-tarbiya berish shakllarini topishga uringanlar. Buning natijasida dastlab individual ta’lim tarkib topgan bo‘lib, u vaqtlar o‘tishi bilan ustoz- shogird tizimi darajasigacha rivojlantirilgan.

Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun ham ayniqsa, kasb-hunar tayyorgarligida bu usul bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va sur’atini to‘la individuallashtirishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi.

Individual o‘qitishning ustunliklari bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

1) ko‘p vaqt talab etilishi; 2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi; 3) boshqa tahsil oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi; 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur kamchiliklar XVI asrdan boshlab individual o‘qitishning ahamiyatini bir muncha pasayishiga va uning muqobili sifatida ta’limning individual-guruhli shaklini kelib chiqishiga imkon berdi.

Ta’limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshlandi.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir tahsil oluvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi tahsil oluvchilar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir tahsil oluvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan tahsil oluvchilar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda, tahsil oluvchilar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

XV - XVI asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar ta’limning ommaviy shaklini yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida sinf-dars tizimini nazariy jihatdan asoslab berdi va ommaviylashtirilishga muhim o‘z hissasini qo‘shti. Komenskiy pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarini kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 360 yil avval asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan tahsil oluvchilar sinf yoki guruhni tashkil etadi. Bu sinf yoki guruh ta’lim muassasasida o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf yoki guruh faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida tahsil oluvchilar yilning bir vaqtiga oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi.;
- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir o‘quv predmeti yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois tahsil oluvchilar sinf yoki guruhda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda tahsil oluvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir tahsil oluvchini alohida bilimini baholaydi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi va uning barcha ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘ratadi:

- 1) ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va tahsil oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi.
- 2) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.
- 3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga nemis pedagogi A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va tahsil oluvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, tahsil oluvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit ta’lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tartib asosida kechishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonning o‘qituvchi tomonidan boshqarilishi; o‘quv muammosining tahsil oluvchilar yoki ishtirokchilar jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini hamkorlikda izlash jarayonida tahsil oluvchilar orasida o‘zaro musobaqa munosabatlarining shakllanishi; o‘qituvchining

tahsil oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiyallarni ta'sir ko'rsatishi;  
ta'larning emotsiyalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning  
katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini  
kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni mustaqil ravishda  
o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilar  
uchun mo'ljallanganligi, bo'sh yoki juda yaxshi o'zlashtiruvchilar uchun  
qiyinchiliklarning yuzaga kelishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish  
sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek,  
tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdagi qiyinchilikning  
yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli tahsil oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning  
qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan tahsil  
oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratildi. Shunga mos  
ravishda AQSh va Yevropada tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi.

Yevropa va AQShda, XX asr boshida tahsil oluvchilarning individual, faol,  
mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lismalarining  
samaradorligi sinab ko'rildi.

XX asrning 20-yillarida amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan ta'larning  
loyihali tizimi targ'ib qilina boshlandi. O'qitishning bu tizimi o'quvchilarning o'zları  
loyiha ishlari mavzusini tanlab olishlaridan iborat edi. U mavjud haqiqiy hayot bilan  
bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishiga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-  
siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi  
kerak bo'lgan.

60-yillarda amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan Tramk  
rejasi juda mashhur bo'ldi. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda  
(100-150 nafar tahsil oluvchi) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va  
o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etgan. Turli xildagi  
texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining

40 foiz miqdori ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg‘ulotlarga (seminarlar) – 20 foizi, kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 foizi ajratiladi.

70-yillarda o‘qishni tashkil etishning noan’anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba – sinov maktablarini izlash bиринчи navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog‘liq bo‘lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o‘qishni individuallashtirish edi. Hozirgi paytda XVI asrda Ya.A. Komenskiy tomonidan asoslangan sinf (guruh) - dars shakli va zamon hamda istiqbol talablarini o‘zida aks ettiruvchi noan’anaviy (bahs-munozara, seminar, seminar-trening, laboratoriya-amaliy mashg‘uloti, sayohat, davra suhbat, viktorina, fakultativ, o‘yin kabi) shakllardan keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Sinf-dars tizimida mashg‘ulot o‘quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajasiga binoan tabaqalashtirilib, ma’lum o‘quv dasturi va jadval asosida o‘qituvchi rahbarligida tashkil etilib o‘tkaziladi. Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o‘tkazishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o‘zaro bog‘liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.
2. Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.
3. Ishtirokchilarining ongli o‘zaro hamkorlik faoliyatining ta’minlanganligi.
4. O‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
5. Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.
6. O‘quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilar.

Shu o‘rinda hozirgi paytda ham ta’lim-tarbiyani yakka tartibda tashkil etish shakli saqlanib qolgan bo‘lib, ayniqsa undan o‘quvchilarning ehtiyoji, xohishi, qiziqishlari, ba’zan o‘zlashtirmaslikni bartaraf etish, uzoq vaqtlar davomida tibbiyot xodimlari nazoratida bo‘lgan yoshlarga ko‘maklashish maqsadida undan foydalanilmoqda.


Shunday qilib, shu paytgacha bu tizimdan foydalanib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo‘q.

Hozirgi paytda kasbiy ta’limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanishi ko‘p sonli pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilgan:


Nofaol. Bu jarayonda o‘quv materiali o‘qituvchi tomonidan tayyor holda uzatiladi, tahsil oluvchilar faqat eshitadilar, kuzatadilar va imkon qadar xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Faol. Kasbiy ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘zaro bir-birlariga nisbatan faol muloqot va munosabatda bo‘lib, o‘rganilayotgan ob’ekt ma’nosini hamda mohiyatini anglab yetadilar. Chunki bu jarayonda o‘qituvchi va tahsil oluvchilar orasida qaytar aloqa ta’minlanadi.


Interfaol shaklda tahsil oluvchilar o‘zaro muloqot va munosabatlari yo‘lga qo‘yilib, o‘qituvchi ham, tahsil oluvchilar ham faol ishtirok etib, o‘rganilayotgan ob’ektning mohiyati anglanib, amalda qo‘llanishi ham aniq misollar yordamida ko‘rsatiladi. Bunday ta’lim shakllarini ba’zi bir pedagoglar monologik, dialogik va poliologik ta’lim sifatida ham talqin etadilar. Ta’limning zikr etilgan shakllarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.



Монологик



Диалогик



Полиологик

foiz

jabli

dars – ta’lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi.

Sinf-dars tizimining asosiy o‘ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilar ishtirok etadi; ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq alohida-alohida qismlar ko‘rinishiga ega bo‘ladi;
- har bir dars o‘quv rejasiga kirgan ma’lum bir o‘quv predmetiga oid bo‘ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasbiy ta’lim darslariga o‘qituvchi, muhandis-pedagog, yo‘riqchi, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;

- o‘quvchilar turli ko‘rinishdagi o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiylari hisoblanadi:

- kat’iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;

- iqtisodiy ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Sababi bir o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilar bilan ishlaydi;

- o‘zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi kabilalar.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e’tirof etilgan:

O‘rtacha o‘quvchiga mo‘ljallanganligi; har bir o‘quvchi bilan individual ishslash imkoniyatining yo‘qligi; qat’iy tuzilmaga egaligi va shu kabilalar.

Ijtimoiy talablar, kasbiy ta’limning maqsad va vazifalari, o‘quvchilarning talab va ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatları, prinsiplari kabilarga ko‘ra kasbiy ta’lim darslariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullashtirish;

- darsda barcha didaktik va kasb-hunar ta’limining xususiy prinsiplarining maqbul nisbati hamda uyg‘unligini ta’minlash;

- o‘quvchilarning ongliligi, qiziqishi, ehtiyojlari, moyillagini hisobga olgan holda faol, mahsulli o‘quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;

- o‘quv materialining mukammal o‘zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;

- o‘quvchilar tomonidan ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘rish;

- o‘quvchilarning barcha ijobiylari jihatlarini rag‘batlantirish, o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo‘li bilan o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga erishish;

- darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsiyal his-tuyg‘ularga asoslanish;

- didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;

- nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog‘lab o‘rganish;

- zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;
- o'quvchilarda muntazam va uzlucksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish;
- darslarni mukammal rejalarish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhislash va shu kabilar. Kasbiy ta'limga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq: ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va motivatsion maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohada aniq maqsadlarni belgilab olishni talab etadi.

Bundan tashqari kasbiy ta'lim metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rnatish, hamkorlik qilish, sanitariya-gigienik, axloqiy kabi talablar ham hisobga olinadi.

### Kasb-hunar ta'limini tashkil etish shakllarining turlari



## Darslarning tasniflanishi



Yuqori sifat va samaradorlikka erishish uchun darslarni turlarinigina bilish kamlik qiladi. Buning uchun o‘qituvchidan qanday darslardan qachon foydalanish mumkinligini ham bilish talab etiladi.

Yuqoridagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, sayohat bir paytda dars, ikkinchi holda esa ta’limning alohida shakli bo‘lishi mumkin.

Sayohat, maslahat, uy ishi, o‘quv konferensiyalari, qo‘srimcha mashg‘ulotlar, seminar - praktikumlar, sinov va imtihonlar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar turlicha bo‘lib, o‘qituvchidan ijodiy yondashuv, eruditsiyani talab etadi.

Biz, sayohat bir paytning o‘zida ham dars, ham alohida tashkiliy shakl bo‘lishi mumkin, deb o‘ylaymiz. Agar sayohat belgilangan o‘tkazilish vaqt, ishtirokchilari bilan chegaralangan qat’iy jadvalga binoan aniq mavzu bo‘yicha o‘tkazilsa, u sayohat darsi deb e’tirof etiladi.

O‘qituvchi sayohatni tashkil etishiga qaramay, ayrim hollarda o‘zining ob’ekti (predmet, hodisa, jarayon, voqe, shaxslar va ularning o‘zaro munosabatlari kabilalar)ni mukammal bilmasligi mumkin. Bunday hollarda mashg‘ulotni maxsus shartnomaga ko‘ra belgilangan mutaxassislar o‘tkazishi, ya’ni o‘tkazish muddatining aniq chegaralanmaganligi, ya’ni mashg‘ulot jadvaliga ma’lum ma’noda amal qilinmasligi tufayli u ta’lim-tarbiyaning maxsus shakli sifatida tan olinadi.

Quyida ixtisoslik o‘quv predmetlarini zamonaviy dars tuzilmasi asosida o‘qitish metodikasini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

“O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi”da Respublikamiz iqtisodiyotining sakkizta sohasiga 86 ta tayyorlov yo‘nalishlari, 225 ta kasb va 578 (622) ta ixtisosliklarni egallaydigan kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash belgilab berilgan.

Ushbu umum davlat darajasidagi o‘quv-me’yoriy hujjat bo‘yicha quyidagi 10 ta tayyorlov yo‘nalishlarida 25 ta bo‘lajak kasb sohiblariga “V” yoki “VS” toifali haydovchi ixtisosligi kiritilgan:

**Yer usti transport tizimlari:** Avtomobilarni yig‘ish va sinash bo‘yicha texnik-mexanik - 3521101; Avtomobilarni bo‘yash va kuzov ishlari bo‘yicha texnik-mexanik – 3521102; Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik-mexanik – 3521103;

Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish (avtomobil transporti texnigi) – 3521104; **Ko‘tarma transport va qurilish mashinalaridan foydalanish:** Ko‘tarma transport va yo‘l qurilish mashina va mexanizmlarini ishlatalish va ta’mirlash bo‘yicha texnik-mexanik – 3524101; **Neft va gaz ishlari:** Neft va gaz quduqlarini sinash texnigi – 3540302; **Bino va inshootlar qurilishi:** Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, transport inshootlari va aerodromlarni qurish, faydalanish va ta’mirlash texnigi – 3580206; **Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji:** Suv, gaz ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini o‘rnatish, ta’mirlash va ishlatalish ustasi – 3580401; **Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish:** Fermer xo‘jaligi mutaxassisi – 3610101; Issiqxona va parnik xo‘jaligi texnik-texnologi – 3610102; agronom - 3620201; Zootexnik - 3620601; Zootexnik asalarichi – 3620602; Pillachilik – 3620603; Ixtiolog - 3620604; Qishloq xo‘jaligi mashina va jihozlariga xizmat ko‘rsatish mexanigi – 3630101; Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashadirish elektrotexnigi – 3630201; Veterenar – 3640101; Kinolog – 3640102; Gidromeliorativ mashina va jihozlardan foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish mexanigi – 3650201; Sug‘oriladigan yerlar meliorativ tizimlari texnigi – 3650202; **Sport foliyati :** Maishiy xizmat texnikalari va kassa apparatlarini ta’mirlash bo‘yicha usta – 3810901; **Uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bo‘yicha servis:** Teleradio apparaturalarni ta’mirlovchi usta – 3810904; **Servis (transport):** Yonilg‘i quyish shaxobchalariga servis xizmat ko‘rsatish texnigi – 3811401; **Ekologiya va atrof muhit muhofazasi:** Ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo‘yicha mutaxassis – 3850001.

Yuqorida qayd etilgan tayyorlov yo‘nalishlari va kasblarning o‘zi uning naqadar keng ko‘lamli ekanligidan dalolat beradi. Bu ixtisosliklarda har bir tahsil oluvchini 50 soat vaqt davomida avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish ko‘zda tutilgan.

Avtomobilarni yakka tartibda boshqarish mazmunan avtomobilarning tuzilishi va ishlashi; yo‘l harakati qoidalari; xavfsiz harakatlanish qoidalari asoslari kabilarning uzviy davomi hamda amaliyotda qo‘llanishi sifatida qaraladi. Amaliy jihatdan esa u o‘ziga xos yakuniy bosqich, ya’ni tahsil oluvchilarning nazariy

bilimlarini mustahkamlavchi, kasbiy tayyorgarlikning yakunidir. Bunday mashg‘ulotlarda nazariy bilim kasbiy xatti-harakat usullariga va undan so‘ng mashq qilish yo‘li bilan kasbiy madaniyat darajasigacha yetkaziladi. Shunday qilib, avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish mashg‘ulotlarida bo‘lajak haydovchining ish faoliyati uchun zarur bo‘lgan amaliy bilim va xatti-harakat usullararini tarkib toptirish ma’lum shart-sharoitda amalga oshiriladi. Avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish mashg‘ulotlarida yo‘riqchi-o‘qituvchi ikkinchi darajali ish bo‘lmasligini yodda tutishi zurur, chunki har bir yo‘l harakati qoidasi va xavfsiz harakatlanishda yo‘l qo‘yilgan xato yo‘l-transport baxtsiz hodisasiga yoki umuman halokatga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni boshqarishga o‘rgatuvchi yo‘riqchi-o‘qituvchi bu huquqni beruvchi hujjatga va kamida 3 yillik haydovchilik ish stajiga ega bo‘lishi shart hamda quyidagilarga amal qilishi zarur.

Tartibli faoliyat ko‘rsatib tahsil oluvchilarga o‘rnak bo‘lish; o‘quv mashqlarini tahsil oluvchilar tomonidan to‘g‘ri, o‘z vaqtida bexato bajarilishiga erishish; tahsil oluvchi yo‘l qo‘ygan xatolarining sabablarini va ularni bartaraf etish yo‘llarini tushuntirish; ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish, uni suhbatga aylantirib yubormaslik, har bir mashg‘ulot oxirida tahsil oluvchilarni ziyraklikka, tashabbuskorlikka, mehnatsevarlikka va avtomobilarga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatishga o‘rgatish; avtomobilarni boshqarishda yo‘l harakat qoidalariiga amal qilib, xavfsiz harakatni ta’minalash; ilg‘or haydovchilar tajribasidan foydalanish, o‘quv dasturining to‘liq bajarilishini ta’minalash, uni hisoblash, avtomobillar holati va ishini tekshirib turish kabi tahsil oluvchilarni texnik tafakkurini rivojlantirish; o‘zlashtirmaydigan tahsil oluvchilarga alohida e’tibor berish, har bir tahsil oluvchiga individual yondashish, ular uchun qiyin bo‘lgan materialni qunt bilan o‘rgatish va shu kabilar. Shuningdek, yo‘riqchi-o‘qituvchi tahsil oluvchilarga nisbatan manmanlik qilmasligi, ularning ustidan kulmasligi, qo‘pol muomala qilmasligi kerak.

Avtomobilarni boshqarishga o‘rgatish vaqtida ta’lim muassasasi faoliyatiga aloqasi bo‘lмаган ўк ва одамларни ташиси мумкин эмас. Шунингдек, транспорт виситаларининг харатланishi та’qiqlangan ko‘chalarda ularni boshqarishga

o‘rgatmaslik zarur. Chunki, avtomobilarni boshqarishga o‘rgatish vaqtida sodir bo‘lgan yo‘l transport halokatiga va yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga yo‘riqchi-o‘qituvchi ham, tahsil oluvchi ham birday javobgar hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik, fiziologik, iqtisodiy, xavfsiz harakatlanish asoslariga binoan avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish quyidagi uch bosqichda: maxsus mashq qilish qurilmalarida, o‘quv mashq maydonlarida va o‘quv dasturi talab qilgan yo‘llarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Avtomobilarni boshqarishga o‘rgatish ma’lum o‘quv dasturi asosida o‘tkaziladi. Har bir mashq avval vazifalarga bo‘linib, so‘ngra majmuaviy holda bajariladi. Avtomobilarni boshqarishni mashq qildirish ishining mazmuni, hajmi va tartibini alohida tahsil oluvchilarning shaxsiy xususiyatiga qarab o‘zgartirish va baholash yo‘riqchi-o‘qituvchining xatosi hisoblanadi.

Mashg‘ulotlar ma’lum tartibda o‘tkazilganligi uchun birinchi mashqni bajarmagan tahsil oluvchi navbatdagi ikkinchi mashqqa qo‘yilmaydi. Har bir mashqni bajarilish mohiyati va tartibi bilan yo‘riqchi-o‘qituvchi ko‘rgazmali holda tahsil oluvchini avval tanishtiradi va undan so‘ng tahsil oluvchidan uni qaytarishni talab qiladi. Tahsil oluvchilar yo‘riqchi-o‘qituvchi ko‘rsatgan vazifani bir necha marta takrorlab (mashq qilib) o‘zlashtiradi. Shunday qilib, har bir mashg‘ulotdan so‘ng tahsil oluvchida mazmunan keng hajmdagi, murakkablik darajasi ortib boruvchi kasbiy bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar shakllanib boraveradi. Tahsil oluvchilarni avtomobilni boshqarishga o‘rgatish davrida ularni faqat bitta yo‘riqchi bilan ishlashiga ruxsat etiladi. Bu tahsil oluvchilar xohishiga ko‘ra boshqa yo‘riqchi-o‘qituvchiga o‘tib ketishlarini chegaralab, faqat boshqa markadagi avtomabillarni o‘rganish kerak bo‘lgan holdagina o‘zgartirilishi mumkin.

Avtomobilarni boshqarishga o‘rgatish mashg‘ulotlari ham barcha ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlari kabi yo‘riqchi-o‘qituvchining boshlang‘ich (kirish) ko‘rsatma berishi, tahsil oluvchining mustakil mashq qilishi va yo‘riqchi-o‘qituvchining yakuniy ko‘rsatma berib, tahsil oluvchilar faoliyatini baholash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich (kirish) ko‘rsatmasini berishda yo‘riqchi-o‘qituvchi mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadini tushuntirib, bu maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar va ularni bajarilish tartibi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatib o‘tadi. Shuningdek, bu mashq uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlarni shakllanganlik darajasini aniqlaydi, kerak bo‘lsa qo‘srimcha ma’lumotlar berib, talab darajasidagi o‘zlashtirishga erishiladi.

Mashg‘ulotning ikkinchi bosqichida yo‘riqchi-o‘qituvchi tahsil oluvchining har bir xatti-harakatni qanday bajarayotganligini kuzatadi. Bu bosqichda u tahsil oluvchilardan noto‘g‘ri shakllanishi mumkin bo‘lgan kasbiy xatti-harakat usullariga ahamiyat bermog‘i lozim, chunki noto‘g‘ri shakllanib qolgan ko‘nikma va malakani tuzatishdan uni oldini olish osonroq hisoblanadi.

Yakuniy bosqichda tahsil oluvchilar baholanib, ularda, yangi shakllangan ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun uyga vazifa beriladi. Tahsil oluvchida shakllangan kasbiy mahorat darajasini to‘g‘ri baholashda mashqning murakkablik darajasi, hajmi, mashqdan ko‘zlangan maqsadni tahsil oluvchi to‘g‘ri tushunganlik darajasi, sarflangan vaqt texnikaviy talablarning bajarilishi, mustaqilligi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi kabi mezonlarni hisobga olish zarur. Avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish mashg‘ulotlarining tahlili va ana shu mashg‘ulotlarni o‘tkazuvchi yo‘riqchi-o‘qituvchilar bilan suhbatlarimiz jarayonida amaliyotchilar quyidagi xatoliklarga yo‘l qo‘yishlari aniqlandi:

1. Mashg‘ulot davomida ko‘proq tahsil oluvchilarning xatolarini topish va ularni bartaraf etishga harakat qilinadi, natijada ko‘zda tutilgan mashqning mohiyati va uni bajarish tartibini tushuntirishga kam vaqt sarflanadi.

2. Suhbat o‘tkazib tahsil oluvchilarda shakllangan kasbiy bilim va ish-harakat usullarini nazorat qilishga hamda baholashga ko‘p vaqt sarflanib, natijada tahsil oluvchi nisbatan qisqa vaqt davomida mashq qiladi.

3. Tahsil oluvchining har bir xatti-harakatiga va holatiga ahamiyat beriladi, kerak bo‘lmagan vaqtda ham tahsil oluvchilar ishiga aralashib, ularda ishonchsizlik bilan ish ko‘rish kabi salbiy xislatlarni shakllanishiga olib keladi.

Tahsil oluvchi avtomobilni boshqarishni mashq qilayotganda yo‘riqchi-o‘qituvchi faqat xavfli holat kelib chiqadigan hollardagina ularni ishiga aralashishi lozim. Bunda yo‘riqchi-o‘qituvchi avval tahsil oluvchi o‘z xatosining oqibatini tushunib yetishi uchun sharoit yaratishi, bu holni qaytarmaslik yo‘llarini tushuntirishi va undan so‘ng tahsil oluvchi yo‘riqchi ruxsatiga binoan mashqni davom ettirishi mumkin.

Avtomobillarni boshqarish juda murakkab bo‘lib, har doim haydovchidan qo‘l, oyoq, ko‘z, qulqoq, hid bilish kabi sezgi organlarini bir vaqtning o‘zida ishlatishni talab qiladi. Chunki, har bir mashg‘ulotda tahsil oluvchilardan yo‘l sharoitini va o‘lchov-tekshiruv priborlari ishini kuzatib, o‘z vaqtida baholashni va noxush hodisalarini oldini olish kabi xislatlarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Boshqarishni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan avtomobil taniqli «O»yoki «O» belgisi va yo‘riqchi-o‘qituvchi uchun orqani ko‘rsatuvchi ko‘zgu bilan jihozlanishi kerak. Bundan tashqari o‘quv-mashq avtomobili yo‘riqchi uchun qo‘srimcha ilashish muftasi va tormozlash uchun mo‘ljallangan tepkilar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Boshqarish yo‘nalishlari haqida yo‘l harakat xavfsizligini tartibga solish boshqarmasi YHXTSB (DAN) organlari bilan kelishilishi shart. Yuk avtomobillari qo‘srimcha ravishda tahsil oluvchilarni kuzovga chiqib tushishlarini osonlashtiruvchi maxsus narvon bilan ham ta’minlanadi. Shuningdek, bunday avtomobillar haydovchilik asbob-uskunalaridan tashqari, belkurak, bolta, shina buzuqliklarini bartaraf etish uchun maxsus moslamalar yelim materiallari, birinchi yordam uchun dorilar solingan quticha, o‘t o‘chirish moslamalari, sirpanchiq yo‘llardan harakatlanish uchun zanjir va shu kabilar bo‘lishi zarur.

Avtomobillarni boshqarishga o‘rgatish mashg‘ulotlari tahsil oluvchilar o‘rganilayotgan turdag'i va markadagi avtomobillarning umumiyl tuzilishi bilan tanishganlaridan so‘ng boshlanadi ya’ni bu mashqlarga kerakli va yetarli darajada nazariy bilimga ega bo‘lgan tahsil oluvchilar qo‘yiladi.

Avtomobillarni boshqarish bo‘yicha xatti-harakat usullarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, unda tahsil oluvchilar ma’lum xatoliklarga ham yo‘l qo‘yadilar. Bu xatolar ayniqsa avtomobilni o‘z o‘rnidan sakrab qo‘zg‘alishida,

dvigatelni tez-tez ishdan to‘xtab qolishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunday xatolar kelib chiqishiga ilashish muftasi, drossel zaslondasi va tormoz tepkilaridan, tezliklarni almashlab qo‘yish richagidan, rul boshqarish mexanizmlaridan noto‘g‘ri foydalanish, shart-sharoitni to‘g‘ri baholay olmaslik kabilar sabab bo‘ladi. Yuqoridagilarning barchasi dvigatel, kuch uzatmalari, yurish qismi, rul boshqarish mexanizmlarini yejilishi, yedirilishi va deformatsiyalanib o‘z holati, shakli hamda xususiyatlarini o‘zgarishi yoki ishdan chiqishiga, shuningdek, yonilg‘i va moylash materiallarining sarfini ortib ketishiga olib keladi. Bu kamchiliklarni oldini olish uchun bu mashg‘ulotlar avval mashq qilish qurilmalarida so‘ngra o‘quv-mashq qilish maydonida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunday mashg‘ulotlarni birdaniga yo‘llarda o‘tkazish usulubiy jihatdan xato hisoblanadi, chunki yo‘lda piyodalar va boshqa transport vositalarining mavjudligi, yetarli malakaga ega bo‘lmagan o‘quvchi fikrini chalg‘ishiga yoki zo‘riqib ishlashiga sabab bo‘ladi, natijada ko‘zda tutilgan bilim va hatti-harakat usullari kerakli hamda yetarli darajaga yetkazilmaydi. O‘quvchilarni ko‘p hollarda, hadiksirab ishslashiga, o‘zini yo‘qotib qo‘yishiga va baxtsiz hodisalarni sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun avtomobilarni boshqarishga o‘rgatishning boshlang‘ich mashg‘ulotlari tinch, osoyishta sharoitda o‘tkazilishi maqsadga muvofikdir. Shuningdek, bu mashg‘ulot mazmuni va mohiyatiga ko‘ra ham ancha murakkabdir, chunki o‘quvchidan bir vaqtning o‘zida bir qancha sezgi organlari, qo‘l, oyoqlarni ishlatishni talab qiladi.

Avtomobilarni boshqarishni mashq qilish maxsus trenajyor qurilmalari dasturiga quyidagi mashqlarni qiritish mumkin: boshqarish organlari, xabar berish qurilmalari o‘lchov-tekshiruv asboblari bilan tanishish; haydovchining ish o‘rnini tashkil etish: avtomobilni o‘rnidan ravon qo‘zg‘atish, to‘g‘ri yo‘lda boshqarish, o‘ng va chapga burish hamda orqaga qaytish, tezliklarni kichigidan kattasiga va teskaricha katta tezlikdan kichik tezlikka bosqichma-bosqich almashlab qo‘shish; avtomobilni harakatdan to‘xtatish, orqa tomon yo‘nalishiga haydash va shu kabilarni bajarishda boshqarish organlaridan foydalanish tartibini mashq qilish kabilar.

Amaliyotda avtomobilarni boshqarishga o‘rgatishda maxsus o‘quv-mashq maydonlaridan ham keng ko‘lamda foydalilanadi. Bunday maydonlarni ta’lim

muassasalarida mavjud emasligi yo‘riqchi-o‘qituvchilarning ishini murakkablashtirib yuboradi. Chunki yetarli kasbiy mahoratga ega bo‘lmagan tahlil oluvchi bilan kam qatnovli yo‘llarda ham xavfsiz harakatni ta’minlash zarur bo‘lib, yo‘riqchi-o‘qituvchidan juda katta diqqat-e’tiborni talab qiladi. Natijada u tez charchab qoladi va ko‘pchilik hollarda noxush oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlarida mavjud bo‘lgan avtomobilarni boshqarishga o‘rgatish uchun o‘quv-mashq qilish maydonchalari iloji boricha haydovchining mehnat (ish) faoliyatida zarur bo‘lgan bilim va xatti-harakat usullarini mashq qildirish va kasbiy mahorat sirlarini egallashlari uchun yetarli sharoit yaratadigan jihozlar bilan taminlash zarur. Quyida akademik M.I. Maxmutov tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy dars tuzilmasi asosida avtomobilarni yakka tartibda boshqarishga o‘rgatish o‘quv predmeti bo‘yicha birinchi mavzusini o‘qitish metodikasini yoritilgan.

?

## NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR

1. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’limning innovatsion shakl, metodlari va vositalarini tanlash mezonlari haqida ma’lumot bering.
2. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy (ma’ruza, binar-ma’ruza) mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasini bayon eting.
3. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasini tushuntiring.

### **3-MAVZU: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi.**

**Reja:**

1. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasiga oid fikrlar tahlili.
2. Mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.

**Tayanch so‘zlar:** mustaqil faoliyat, tayyorgarlik darajasi, mustaqil fiklash, ijodiy qobiliyat, kasbiy mustaqillik.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga ta’lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida shaxsni faqat pedagogik ta’sir ko‘rsatish ob’ekti emas, balki bilim olish sub’ekti sifatida qaralishini, uning mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganuvchi sifatida o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratilishini shart qilib qo‘yadi.

Buning uchun mustaqil ta’limni tashkil etish va shu orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Tayyorlanayotgan kadrlarning ongliligi, mustaqilligi va ijodkorlik kabi sifatlarini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki, faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsgina o‘z muammolariga maqbul yechim topa oladi, jamiyatda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘ladi. Bunday qobiliyat dastlab oilada, keyinchalik esa ta’lim muassasalarida shakllanadi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi turli maslahat, tavsiya, topshiriq va yangi ma’lumotlarni berayotganda, darsning turli bosqichlarida mustaqil ta’limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, tekshirish hamda bajarish ishlariga alohida e’tibor qaratishi lozim. Mustaqil ta’limni tashkil etish o‘qituvchidan chuqur bilim hamda yuksak mahoratni talab etadi. Agar o‘quvchilarni o‘quv materiallaridan muhimini ajratib olish, dalillarni to‘g‘ri baholash, tahlil qilish hamda amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatsak, shundagina mustaqil ta’lim natijasi samarali bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil faoliyat yurita olishi ularning tayyorgarlik darajasining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘quvchining mustaqil faoliyat yuritish sifatiga faqatgina ko‘rsatmalarga binoan faoliyat ko‘rsatuvchi oddiy ijrochi emas, balki masalalar yechimiga ijodiy yondoshib, yangiliklar yaratuvchilik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Izohli lug‘atlarda: “**Mustaqillik – o‘zgalarning yordamisiz, ko‘rsatmalarisiz va rahbarligisiz ish qila oladigan, o‘zicha fikr yurita oladigan, yashay oladigan**” deb izoh berilgan.

Pedagogik ensiklopediyada mustaqillik quyidagi ikki jihat bilan tavsiflanuvchi shaxsning muhim sifati deb talqin etilgan: birinchidan, shaxs egallagan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; ikkinchidan, shaxsning ob'ekt (predmet, hodisa, jarayon, jonli zot)larga faoliyat natijalari, shart-sharoitlarga munosabati, shuningdek, boshqa shaxslar bilan aloqalari sifatida talqin etilgan.

Pedagogikada kasbiy mustaqillik haqida bir qat'iy to'xtamga kelinmagan. S.Ya.Batishevning fikricha o'quvchilarining kasbiy mustaqilligini tarbiyalash bilan birga ta'lif beruvchi ulardan ishga qo'yilgan barcha talablarni mustaqil holda hal etishini talab etishi zarur; ishni bajarish ketma-ketligini rejalashtirib, ko'zda tutilgan, ya'ni kafolatlangan natijaga maqbul erishish yo'llarini topsin, zamonaviy jihozlar, dastgoh, qurilmalar bilan ishlashda o'z mehnatini ilmiy tashkil etsin, ishida uchraydigan qiyinchiliklarni o'zi oqilona hal etsin.

Psixologik-pedagogik manbalar tahlili bo'lajak mutaxassislar mustaqilligi turli yo'nalishlarda talqin etilganligidan dalolat beradi. Mustaqillik uchun eng xarakterli xususiyat shaxsda o'z tasavvuri, fikri, g'oyasi va ishonchining mavjudligi, fikrlash malakasi, vaziyat va shart-sharoit jamoaga kasbiy moslashuvni to'g'ri tushunish, oqilona qaror qabul qilish, o'z maqsadiga erishishda sabot bilan ishlab, fikrining to'g'riliгини isbotlashdan iborat ekanligi A.S.Linda, E.F.Zeer, U.N.Nishonaliev, K.K.Platonov, N.S.Sayidahmedov, Sh. Yunusova va boshqalarning ishlarida ta'kidlangan. Zikr etilgan olimlarning fikricha, inson o'z faoliyatini o'zi boshqarishi shart. Aks holda qo'yilgan maqsadga erishishga xalaqit beruvchi o'ziga xos to'siq va muammolarga duch keladi. Har qanday ishni mukammal bajarish uchun chuqur va har tomonlama keng ko'lamli bilim, malaka va sabr-toqat zarurligini ta'kidlashgan.

Olimlar kasbiy mustaqillik maxsus mustaqil ishlarni bajarish jarayonida shakllanishi mumkin deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, o'quvchilarining mustaqil ishlarni bevosita ta'lif beruvchilar rahbarligida bajarishlari ularda kasbiy qobiliyatlar va ijodiy izlanuvchan munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Chunki, o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish asosida izlanuvchan o'quv-bilish faoliyati yotadi. Ularning xarakteri tadrijiy ravishda o'zgarib, namunaga binoan ishlardan tortib, to ijodiy ishlargacha murakkablashib boradi. Mustaqil ishlarni

bajarishda o‘quvchi o‘z ishini oqilona rejalashtirish, amalga oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi.

Psixolog olim T.V. Guskova mustaqil ishlarni shaxsning bilish va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muntazam o‘quv-bilish faoliyati deb bilsa, pedagog olim A.S.Lyinda va uning maslakdoshlari o‘quvchilar mustaqil ishlarining ba’zi jihatlarini ajratib ko‘rsatganlar:

- bilish yoki amaliy xarakterdagi ishlar;
- muammoli vaziyatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi mustaqil ishlar;
- qo‘yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar;
- o‘quvchi o‘z faoliyatini rejalashtirishi, uni boshqalarni yordamisiz tashkil etib, amalga oshirish orqali natijalarini maqsadiga qiyoslab, baholashni nazarda tutuvchi ishlar;
- muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli vaqtarda tuzatishlar kiritish va takomillashtirib borishni ko‘zda tutuvchi ishlar;
- vazifalarni to‘la bajarish orqali shaxsni yaxlit rivojlantirishga, ijodkorligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ishlar.

V.D.Ivanov o‘quvchilarning quyidagi mustaqil ishlari bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan: masalalar yechish, mashqlar, grafik va ko‘rgazmali ishlarni bajarish kabilalar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik nazariyotchi olimlar va amaliyotchi pedagoglar mustaqil ishlarini tavsiflashda asos sifatida o‘quvchilarning mustaqillik darajasini yoki mustaqil ishlarning didaktik vazifasini oladilar. Birinchi holatda mustaqil ishlar: taqlid qilish, mashq qilish, ijodiy yondoshuvchi ishlar, tadqiqotchilik ishlari kabilar nazarda tutilsa, ikkinchi holatda esa mustaqil ishlar quyidagilarga bo‘linadi:

yangi bilimlarni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan ishlar;  
o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llashga mo‘ljallangan ishlar;  
takrorlash, bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish uchun mo‘ljallangan mustaqil ishlar.

I.I. Malkin mustaqil ishlarni quyidagicha guruhashni tavsiya etadi:

1. Mahsulsiz (reprodukтив) mustaqil ishlar: a) qayta takrorlash; b) mashq qilish; v) sharhash; g) tekshirish ishlari.
2. O‘quv-bilish xarakterli mustaqil ishlar: a) tayyorgarlik; b) qayd etuvchi; v) izlanuvchan xarakterli, tajriba-sinov; g) mantiqiy-izlanuvchan.
3. Ijodiy mustaqil ishlar: a) badiiy-obrazli; b) ilmiy ijodiy; v) texnik-loyihachilik.
4. Amaliy-bilish xarakterli mustaqil ishlar: a) o‘quv-amaliy; b) ijtimoiy-amaliy.

A.A.Verbiskiy mustaqil ishlarni tavsiflashda ma’lumotlar manbai, ta’lim metodlarini asos sifatida olinishi muhimligini ta’kidlab, mustaqil ishlarni quyidagicha guruhashstirgan:

- a) darsliklar bilan ishslash;
- b) ma’lumotnomma xarakteridagi adabiyotlar bilan ishslash;
- v) masalalar yechish va qiyoslash;
- g) o‘quv mashqlarini bajarish;
- d) insho va bayonlar yozish; kuzatish va laboratoriya-amaliy ishlarini bajarish; chizmalar, modellardan foydalanish va xatti-harakat usullarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil ishlar.

N.A.Muslimov mustaqil ishlardan ko‘zlangan maqsadlarni quyidagicha bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirish malakasini egallash.
2. Bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirish.
3. O‘quv va amaliy malakalar yechimini topishda bilimlarni qo‘llash orqali o‘quvchilar malakalarini rivojlantirish.
4. Amaliy xarakterdagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
5. Ijodiy xarakterdagi ko‘nikmalarni shakllantirish, qiyin vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash malakasi.

Bundan ta’lim-tarbiya jarayoni mustaqil ta’limsiz to‘laqonli kechmasligi kelib chiqadi.

“Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra, o‘quvchi mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat deb belgilab qo‘yilgan:

-umumta’lim fanlarini mustaqil o‘qib-o‘rganishda axborot–resurs markazi (kutubxona) fondida mavjud bo‘lgan o‘quv adabiyotlaridan foydalanish, berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish;

-tanlagan kasbi, mutaxassislik va ixtisoslik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishda fan o‘qituvchilari va muhandis pedagoglar maslahatlaridan foydalanish;

-elektron darsliklar, elektron multimediali o‘quv qo‘llanmalaridan va kasbga oid boshqa ma’lumotlarni fan o‘qituvchilari va muhandis pedagoglar yordamida o‘zlashtirish;

-internet va elektron pochta tarmog‘idan foydalanishni o‘zlashtirish;

-mustaqil ishning natijalarini kasbiy fanlar kafedralarida guruh a’zolari ishtirokida taqdimot qilish (referat, kurs ishi, model, stend va sxemalar) kabi vazifalar bajarilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishni tashkil etishda har bir o‘quv predmetining xususiyatlarini, shuningdek, har bir tahsil oluvchining akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ixtisoslik o‘quv predmetlari bo‘yicha ayrim mavzularni o‘quv adabiyotlar, didaktik materiallar hamda elektron o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;

- ta’lim muassasasida tashkil etiladigan ko‘rik-tanlovlardan, konferensiylardan va seminarlarda ma’ruzalar bilan qatnashish;

- laboratoriya-amaliy ishlarini bajarishga tayyorlarlik ko‘rish;

-kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

-o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotidagi amaliy ko‘nikmalarni turli manbalardan foydalanib mustahkamlash;

- turli ko‘rgazmalarda mustaqil ish natijalari bo‘yicha ijodiy ish namunalari bilan (kasb va ixtisosliklarga oid modellar, sxemalar va detallardan namunalar tayyorlash) qatnashish;

-anjuman va ko‘rik tanlovlarda mustaqil ish natijalari asosida tayyorlangan maketlar bilan qatnashish;

-o‘quv predmetlaridan uyga berilgan topshiriqlarni bajarish.

Tanlagan kasbi va ixtisosliklari bo‘yicha ishchi o‘quv rejasida keltirilgan mustaqil ishlarni o‘zlashtirishda tahsil oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z munosabatini bildirish, o‘rganilayotgan voqea, hodisa, jarayonlarni mohiyatini tushunish kabi faoliyatlar orqali amalga oshadi.

Amaliy tavsifdagi o‘quv materiallarni o‘zlashtirishni turli laboratoriya ishlari, mashqlarni bajarish orqali amalga oshirish mumkin.

Mustaqil ish o‘quvchilarda:

- sxema va chizmalarni mustaqil tuzish, yangi ma’lumotlar bilan tanishish;
- o‘rganilgan manbalar: darslik, adabiyotlar va atrof-muhitdan kerakli materiallarni izlab topish;
- o‘rganilayotgan muammoni hayotiy tajribalar va o‘zlashtirilgan bilimlar asosida ilmiy asoslab berish;
- o‘quv materialining xususiyatiga qarab guruhlarga ajratish kabi vazifalarni bajarishni talab qiladi.

O‘zlashtirilgan nazariy bilimni amaliyotda qo‘llashda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati katta bo‘lib, tahsil oluvchilarda boshlang‘ich kasbiy ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida mustaqil ishslashda tashkil etiladigan:

- avvalgi mashg‘ulotning dalillari bilan bog‘liq muammolarni yechishga yo‘l topish;
- boshqa o‘quv predmetlaridagi axborotlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yechimini topish;
- teoremalarni qo‘llab, mustaqil yangi misol va masalalarni tuzish;
- o‘rganilayotgan yangi hodisa, jarayonlarni ilmiy asoslangan holda tushuntirish, murakkab bo‘lmagan ma’lumotlarni mustaqil o‘rganish;
- solishtirish, qiyoslash va xulosa chiqarish yo‘li bilan predmet, buyum, hodisa, jarayonlarning farqi va o‘xshash tomonlarini tushuntira olish;
- yo‘l qo‘ygan xatolar mazmun va mohiyatini anglab yetish va ularni bartaraf etish ustida ishslash;

- referat, model, maket kabilarni tayyorlashni taqozo etadi.
- Mustaqil ta’lim mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagi jihatlarga ega:
- kasbiy yo‘nalganlik;
  - o‘quv menejmenti;
  - tahsil oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishlarini ta’minlash va ularning safarbarligini oshirish;
  - ta’limda yuqori sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida mavjud shart-sharoit hamda guruhning barcha a’zolari imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish;
  - tahsil oluvchilarning ma’lum ish yoki jarayonni rejulashtirish, amalga oshirish va ular natijalarini nazorat qilib baholash ishlarida qatnashishlari va boshqalar.

Talabalar mustaqil ishining uslubiy (axborot) ta’minoti- tahsil oluvchi uchun ma’lum bir mutaxassislik yoki ixtisoslik o‘quv predmeti bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini bevosita olib boruvchi o‘qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar beriladi.

Talabalar ning mustaqil ishni bajarishlari uchun axborot manbai sifatida adabiyotlarning yangi avlodlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik qo‘llanma, internet tarmog‘idagi tegishli ma’lumotlar, berilgan mavzu bo‘yicha avval bajarilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar va boshqalar xizmat qiladi.

Kafedra mudiri va ta’lim muassasasining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari taqdimnomasiga asosan talabalarga mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy axborot manbalari, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishslashni, o‘quvchilarga turli kutubxonalar, tarmoq muassasalari va korxonalar bilan ilmiy-amaliy hamkorlik ishlarini kuchaytirish uchun mustaqil ish mavzulariga asosan zaruriy ma’lumotlar to‘plash yuzasidan so‘rovnama xatlarini rasmiylashtirib beradi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan Talabalarga mustaqil ishlarni o‘z vaqtida bajarish uchun zamonaviy kompyuterlar va internet tarmog‘idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Biz mustaqil ishlarni tashkil etishda manbalar stendidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Stendda 500 ga yaqin pedagogik manbalar va

ularning mundarijalari keltirilgan bo‘lib, tinglovchilar mustaqil ishni bajarish jarayonida o‘z mavzulariga tegishli manbaning mundarijasidan foydalanib, kerakli axborotlarni oson va tez topadilar, qo‘yilgan topshiriqni yechimini topishda ulardan ijodiy foydalanadilar. Shu o‘rinda manbalar stendi o‘ziga xos kartoteka va axborot manbasi vazifasini o‘tashini ham ta’kidlash lozim.

Shunday qilib, mustaqil ta’lim o‘quvchilarning quyidagi shaxsiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi:

- muloqotga kirisha olishlik;
- jamoada hamkorlikda ishlay olishlik;
- o‘z-o‘zini boshqara olishlik tufayli kamol topishlik;
- muammoli vaziyatlarda tezkor va maqbul qarorlar qabul qila olishlik;
- shart-sharoit, jamoadagi hamkorlik muhitiga tez moslashuvchanlik;
- faollik va ijodkorlik;
- tanqid dan to‘g‘ri xulosa chiqara olishlik;
- zo‘riqishlarga, sabr-toqatlilik va barqarorlik, faollik;
- ish jarayonini maqbul rejalashtirish va ilmiy asoslangan holda tashkil eta olish qobiliyati;
- axloqiylik va tarbiyalanganlik;
- milliy va ma’naviy qadriyatlarga, tartib-qoidalarga qat’iy amal qilish va boshqalar.

Darhaqiqat, ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlari muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlar bilish muammolarini yuzaga keltirish, o‘quv vazifalari yechimini topish, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, laboratoriya-amaliy mazmundagi mashqlarni bajarish, xatti-harakatlarni takomillashtirish, dastlabki malakalarni shakllantirish kabilarni qamrab oladi. Shaxsning aqliy mustaqilligi bevosita kasbiy mustaqillikning tarkibiy elementi hisoblanib, o‘quvbilish faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Psixologlar o‘quvchi o‘z tashqi xatti-harakatlaridan ichki fikrlashga o‘tishida mustaqillik qobiliyati tarkib topadi deb izohlaydilar. Aqliy mustaqillik shaxs mustaqilligining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘z navbatida faol hayotiy nuqtai-

nazarni shakllantirish asosi, zaruriy shartidir. O‘quvchilarning mustaqil ishlari – o‘quv jarayonining tarkibiy qismidir. O‘quv jarayoni o‘ziga xos tizim, u o‘ziga xos kirish va chiqishga, ma’lum ma’noda boshqariluvchilik xususiyatiga ega. Shu jihatdan olib qaralganda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini ham boshqarish imkoniyati mavjud.

Talabalarning kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishida turli me’yoriy hujjatlar va adabiyotlar bilan ishlashida ularning ta’lim muassasasida mustaqil ta’lim bo‘yicha olgan ko‘nikma va malakalarining ahamiyati kattadir. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib yaratilgan yangi namunaviy o‘quv dasturlarida deyarli barcha o‘quv predmetlariga mustaqil ta’lim uchun vaqt ajratilgan. Ana shu ajratilgan vaqtlardan o‘quvchilarga bilim berishda va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish o‘qitishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirishda quyidagi omillarni yanada kuchaytirish zarurdir:

1. Har bir o‘quvchining o‘qitilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari va boshqa o‘quv-uslubiy materiallar bilan to‘liq ta’minlanishiga erishish.
2. O‘quv rejasida mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan asosiy va qo‘sishma adabiyotlarni aniq ko‘rsatish.
3. Barcha o‘quvchilarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini hosil qilish har bir guruhga o‘quvchiga individual yondoshuvga erishish.
4. Mustaqil ta’lim bo‘yicha o‘quvchilarning olayotgan bilimi va o‘zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilishga erishish.
5. O‘tkaziladigan an’anaviy tadbirlar konferensiyalariga ko‘plab o‘quvchilarni jalb etish.

Ma’lumki, har bir individning aqliy kamoloti, bilimlarni o‘zlashtirishdagi faolligi, ijodiy fikrlash qobiliyatining rivoji uning o‘z ustida qay darajada mustaqil ishlay olishiga bog‘liqdir. O‘quvchilarni raqobatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalash, bir tomondan, bevosita ularga bilim berishning yangi shakl, metod va vositalarini keng joriy etish, bu borada professor-o‘qituvchilarning mas’uliyatini

oshirish, shuningdek, yetakchi xorijiy davlatlar tajribasidan unumli foydalanishga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning mustaqil bilim olishlarining darajasiga ham bog‘liqdir.

Har bir o‘quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish juda oddiy bo‘lib ko‘rinadigan quyidagi holatlarga:

- vaqt taqsimoti va kun tartibining mavjudligiga;
- darsdan tashqari vaqtdan unumli foydalana olish texnologiyasiga;
- har bir o‘qitiladigan o‘quv predmeti bo‘yicha o‘quvchining o‘zi ustida mustaqil ishlashini taqozo etuvchi topshiriqlar majmuasining ishlab chiqilganligiga;
- mutaxassislikka kirish kursini yuqori saviyada o‘qitishni yo‘lga qo‘yish orqali mustaqil ishlashga ehtiyojni shakllantirish va shu kabilarga bog‘liqdir.

Ta’lim muassasasidagi bu holatlarning qanday darajada hal etila borishi, ya’ni o‘quvchining o‘z ustida mustaqil ishlashini samarali tashkil etish-mazkur ta’lim-tarbiya talablariga uning muvaffaqiyat bilan moslashib olish ishiga xizmat qiladi.

O‘quvchining o‘z ustida mustaqil ishlash shakllari turli-tumandir, ular jumladan:

- yangi nashr ettirilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish;
- qisqacha matnlashtirish;
- o‘quv predmetlari bo‘yicha tayanch iboralarning izohli lug‘atini yaratish;
- o‘rganilayotgan o‘quv predmetining eng dolzarb muammolarini qamrab olgan mavzular bo‘yicha referat yozish, turli jamg‘armalar tomonidan e’lon qilingan tanlovlarda ishtirok etish;
- ilmiy tezis va ma’ruzalar tayyorlash;
- ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, kasbiy mavzularda bo‘lib o‘tadigan ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar-treninglar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko‘rish;
- o‘rganilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha mavjud asosiy adabiyotlardan annotatsiyalar yozish;
- mashq va masalalarni yechish, loyihamlar ustida ishlash, amaliy ish o‘yinlariga yoki boshqa amaliy ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- har bir o‘rganilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimida nazarda tutilgan barcha nazorat ishlarini bajarish;

- o‘rganilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha jadval, sxema, grafik, slaydlarni tayyorlash;

- internet tarmog‘idan samarali foydalanish;
- kurs ishi, hisobot, bitiruv malakaviy ishlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

Endi mustaqil ishlar shakllarining ayrim turlariga qisqacha to‘xtalib o‘taylik:

Qisqacha matnlashtirish–mustaqil ishlashning muhim shaklidir. Qisqacha matnlashtirish ijodiy jarayon bo‘lib, u o‘quvchining mantiqiy qobiliyatini o‘stiradi, o‘quv materiali mazmunidan bosh g‘oyasini ajratib fikrini aniq va qisqa bayon etishga o‘rgatadi.

Referat – bu o‘rganilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha eng dolzarb yoki o‘quvchi uchun katta qiziqish uyg‘otgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan bir yoki bir necha adabiyotlardan foydalangan holda, ularning mazmunini tanqidiy yondoshuv asosida mustaqil holda tahlil etib qisqacha bayon qilish.

Nazorat ishi – o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan mustaqil ishlarning shakllaridan biri bo‘lib, amaliy mashg‘ulot darslaridan o‘tib ulgurilmagan misol va masalalar, rolli o‘yinlar va boshqotirmalar test topshiriqlari ko‘rninishida bajarish uchun uyga vazifa tariqasida beriladi. O‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashining qolgan shakllarini, xususan, annotatsiya, tezis, lug‘at, jadval, sxema, grafik va slaydlarni tayyorlash va yozish kabilar ham muhim bo‘lib, ularning qay darajada bajarilishini o‘quvchining umumiy reytingini aniqlash chog‘ida e’tiborga olish ahamiyatlidir.

Mustaqil ish turlaridan ayrimlarini bajarishga qo‘yiladigan talablar quyida keltirilgan:

**Referat-** O‘quvchining ijodiy ishi bo‘lib, u referatni o‘quv dasturiga kiritilmagan, umumlashtirilgan, qisqartirilgan mavzular bo‘yicha bajarsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim beruvchi mustaqil ish rejasini tuzishda aynan ana shu tomoniga e’tibor berishi zarur. Chunki, mustaqil ish shaklida referat tayyorlagan o‘quvchi darsda takrorlanmagan mavzuni mustaqil o‘zlashtiradi, uni ijodiy, ilmiy jihatdan yondoshib yoritadi, mavzudagi asosiy tushunchalar, ma’lumotlarni ajratib olish va o‘rganish borasidagi imkoniyatlarini namoyish qiladi. Shuningdek, o‘zining taklif, mulohaza va xulosalari bilan boyitadi. Referatni og‘zaki shaklda himoyalash

orqali o‘quvchi referatni tayyorlash chog‘ida mavzuga qanchalik e’tiborlilik, qiziqish bilan yondashganini yaqqol ko‘rish mumkin. Yangi mavzuni yoritib berish va darsda, darsdan tashqari vaqtida himoya qilish chog‘ida o‘quvchi boshqalarni ham o‘zlashtirmagan shu mavzu bo‘yicha qisman bo‘lsada tushuncha hosil qilishiga imkon yaratadi.

Referatni o‘quvchi reja asosida biror mavzu, bob, bo‘lim bo‘yicha bajarishi mumkin. Rejada kirish, mavzuni yorituvchi qismlar, xulosa va takliflar qismi bo‘lsa maqsadga muvofiq.

Referatga tanlangan mavzuni yoritar ekan, o‘quvchi faqat darslik bilan cheklanib qolmay, qo‘sishimcha va sharhlovchi adabiyotlardan, risolalar, matbuot materiallari, statistik va xronologik materiallardan, internet tizimidan olingan materiallardan foydalanishi mumkin.

**Buklet-** Mustaqil ishni buklet shaklida bajarish o‘quvchidan alohida izlanishni talab qiladi. O‘quvchi biror mavzu bo‘yicha buklet tayyorlar ekan, shu mavzuni mazmuni, mohiyati va maqsadini o‘ta zukkolik bilan ixcham va tushunarli, ilmiy asoslangan ko‘rinishda yoritishi talab etiladi.

Bukletga o‘quvchi mavzu bo‘yicha qisqa, biroq mazmunli ma’ruza, tarmoqlangan fikr (klaster) shaklidagi xronologik ma’lumot, mavzuning asosiy mohiyatini ko‘rsatuvchi sxemalar, suratlar, namoyish varaqasi, applikatsiya shaklidagi materiallarni kiritish mumkin.

Ahamiyatli tomoni shundaki, bukletdagи rasmlar, sxemalar, klaster va qisqa ma’ruzalar bir-birini to‘ldirishi, izchil bog‘lanishi, eng asosiysi o‘quvchining mavzuni maqsad mohiyatini qanday va qay darajada anglaganligini ko‘rsata olishi zarurdir.

**Uy vazifasini bajarish daftari** mustaqil yangi ma’lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. O‘quvchi har bir mavzuni yanada to‘liqroq o‘rganadi. O‘z bilimlarini internet ma’lumotlari, boshqa manbalarda shu mavzular bo‘yicha berilgan mav’lumotlar bilan boyitadi. O‘qituvchi o‘quvchiga bu borada yo‘nalish beruvchi, aniqlik kirituvchi shaxs sifatida uni to‘g‘ri yo‘naltira olishi zarur. Xususan,

o‘quvchiga uy vazifasini bajarish daftarida qanday ma’lumotlarni ko‘rsatish, qaysi manbalardan foydalanish o‘rinli ekanligini aytib o‘tishi lozim.

O‘quvchi uy vazifasini bajarish daftarida mavzuga kiruvchi masalalarni toifalarga ajratib yozish, klaster tuzishi, mavzu yakunida o‘zining xulosalari asosida rezyume yozishi mumkin.

Uy vazifasini bajarish daftari barcha o‘quv predmetlaridan yuritilishi lozim. O‘qituvchi daftarni tekshirish chog‘ida o‘quvchi bera olgan yangiliklarni ta’kidlashi, aytib o‘tishi va joriy ballga kiritishi kerak.

**Stend-** O‘quvchilar o‘quv predmetlaridan mustaqil ishni stend shaklida bajarishlari mumkin. Stend bir guruh o‘quvchilarning murakkab mustaqil ishi bo‘lib, unga mavzu tanlashda o‘qituvchi va o‘quvchilar yaqin hamkorlikda ishlashlari kerak bo‘ladi. Stendga tanlangan mavzu fanning mazmunini yorituvchi bosh mavzulardan bo‘lib, uning mazmuni faqat birgina mavzuni ifodalash bilan cheklanib qolmay, mavzuning ilmiy assoslantirilgan tomonlarini, bugungi kundagi mohiyatini ham ohib berishi kerak. Stend mavzuning mazmunini ko‘rsatuvchi chizmalardan iborat bo‘lishi mumkin. Unda chizmaning asosiy tushunchasi yozuvlar bilan to‘ldiriladi. Asosiy elementlarga tavsif beriladi.

Mustaqil ishlarni stend shaklida bajarishda butun guruh o‘quvchilarining faol ishlashiga erishish mumkin. Shuning uchun stendlar bajarishni ixtisoslik o‘quv predmetlaridan mustaqil ish sifatida kengroq qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Stend tayyorlashda o‘quvchilarning rassomchilik, dizayn, metall, yog‘och va boshqa materiallar bilan ishlay olish qobiliyatları ham namoyon bo‘ladi.

**Seminar.** O‘quv predmetidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlashda seminar mashg‘ulotlarni tashkil qilish alohida o‘rin tutadi. Seminar mashg‘ulot o‘quvchining o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha chuqur ma’lumotga ega bo‘la olishida ahamiyati katta. O‘qituvchi seminar mashg‘uloti uchun mavzu tanlashda o‘quv rejasiga kiritilgan keng qamrovli mavzularni ajratib olish, mavzu bo‘yicha seminar mashg‘ulotga tavsija qilinadigan adabiyotlarni aniqlab olishi zarur.

Seminar savollari biror bo‘lim yoki bob bo‘yicha bo‘lishi mumkin.

O‘quvchi seminar savollariga zarur adabiyotlardan, qo‘sishimcha manbalar va huquqiy adabiyotlardan o‘rinli foydalanib javob yozadi. Internetdan unumli foydalanib javoblarini to‘ldiradi. Savollarga berilgan javoblar mazmunan boy va ilmiy asoslangan tarzda bo‘lishi lozim. Seminar mashg‘ulot shaklida mustaqil ish qabul qilishning ijobiy tomoni shundaki, unda tanlangan mavzular bir nechta yoki bir necha qismlardan iborat bo‘ladi va barcha o‘quvchilarida biror savolga javob bera olish imkoniyati bo‘ladi. Guruhning barcha o‘quvchilarini birdek mustaqil ishlatish, og‘zaki savol-javobga jalgan eta olish mumkin bo‘ladi. O‘quv predmetlaridan seminar mashg‘ulotlarini tez-tez o‘tkazib turish mustaqil ishni tashkil qilishdan ko‘zlangan ijobiy natijani beradi.

**Konferensiya** – biror o‘quv fani bo‘yicha yoki mavzu bo‘yicha tashkil qilinadigan ilmiy-amaliy kengash bo‘lib, mustaqil ish bajarishning eng yuqori ilmiy saviyadagi ko‘rinishidir. Konferensiyaga tayyorlanish o‘quvchidan mavzu bo‘yicha chuqur ilmiy izlanish, mavzuning darslikda berilmagan yangi qirralarini qo‘sishimcha va ilmiy adabiyotlardan topishni va boshqalar oldida fikrini himoya qila olishini taqozo etadi. Mustaqil ishni konferensiya shaklida tashkil qilishda o‘qituvchi guruh o‘quvchilari bilan birgalikda ishlashi, mavzuni yoritib berishi borasida qanday ilmiy manbalardan foydalanish to‘g‘risida yo‘nalish berishi kerak.

Konferensiyadan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga tushuntirilishi lozim. O‘quvchi konferensiya shaklidagi mustaqil ishga tayyorlanish jarayonida ko‘p manbalar bilan ishlaydi, izlanadi. O‘zining fikrini ko‘pchilik oldida bayon eta olishga tayyorgarlik ko‘radi. Huquqiy manbalar, direktiv hujjatlar, matbuot materiallari, internetdan olingan ma’lumotlar bilan fikrini boyitadi. O‘qituvchi konferensiya shaklidagi mustaqil ishni bajarishga bevosita aloqador mutaxassislar ham ishtirok etishi mumkin. Konferensianing ijobiy tomoni shundaki, unga mukammal va serqirra mavzu tanlanadi va ayniqsa o‘quvchi mavzu bo‘yicha cheklanmagan tarzda erkin fikr bildira oladi.

O‘quvchi mustaqil ishni bajarish davomida quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- o‘z xohish-e’tibori bilan ishlaydi;

- o‘zining ma’naviy-ma’rifiy ongini o‘stiradi;
  - tanlagan kasbiga mehri yanada ortadi;
  - kasb ustasi bo‘lishi uchun yangi qirralar izlaydi;
  - o‘quv va badiiy adabiyotlar bilan yanada yaqinroq tanishadi;
  - o‘z mehnatining qadrini, yaxshi-yomon tomonlarini, kamchiliklarini ko‘zi bilan ko‘radi, ya’ni ularni taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi;
  - bo‘sh vaqtini foydali mehnat bilan to‘ldirib boradi;
  - yuzaga kelgan muammolarni ota-onas, murabbiy, o‘qituvchi, korxona xodimlari, do‘satlari bilan fikrlashishga intiladi;
  - fikr ob’ektini aniq tasavvur eta bilish qobiliyati kuchayadi;
  - uning nutqi ravon, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi va h.k.
- Mustaqil ishni bajarish jarayonida ba’zi muammolar ham mavjud:
- birinchi bosqichda o‘qiyotgan o‘quvchilarga ko‘p sondagi mustaqil ishlarni bajarish va topshirish ularning vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlashga xalaqit beradi;
  - Turli o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan mustaqil ishlarning muvofiqlashtirilmaganligi o‘quvchilarni ortiqcha zo‘riqishlariga olib keladi;
  - mustaqil ishni bajarish uchun o‘quvchilarda yetarli bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi;
  - vaqt jihatdan ulgura olmasligi;
  - o‘qituvchining yetarli darajada o‘quvchilar bilan ishlashlari uchun vaqtlarining yetishmasligi yoki ishlamasliklari;
  - bajarilgan ishlarning mazmuni va sifatiga qarab har doim ham rag‘batlantirilmasligi kabi muammolar mavjud.

Shunday qilib, mustaqil ta’limni maqbul tashkil etish uchun avvalo ta’limning moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minalash; mustaqil ta’limning me’yor va mezonlarini aniqlash; o‘quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shuningdek, mustaqil ta’limning aniq maqsadlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maqsadni mo‘ljal sifatida aniq olgan o‘quvchilar ko‘p kuch va vaqt sarflamasdan ko‘zlangan kafolatlangan natijaga erishadilar.

#### **4 - MAVZU: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash metodikasi.**

**Reja:**

1. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash mazmuni.
2. Talabalarning o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilib baholash dolzarb pedagogik muammo sifatida.

**Tayanch so‘zlar:** o‘zlashtirish darajasi, haqqoniy nazorat, baholashning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati, qat’iy mezonlar.

Ta’lim muassasalarida talabalarning ixtisoslikka oid o‘quv materialini o‘zlashtirganligi, ularda shakllangan ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda o‘qituvchidan mutaxassislik o‘quv predmetlaridan nafaqat asoslaridan chuqur bilim berishi, balki ularni o‘zlashtirish darajasini haqqoniy nazorat qilib, baholash ham talab etiladi. Chunki, nazorat qilish bu faqat ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil qilish emas, balki butun jarayonning turli bosqichlarida o‘quvchilar bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bundan tashqari kasb-hunar ta’limida nazorat qilib baholash o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning ta’limiy ahamiyati, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi haqida o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ijobjiy yoki salbiy tavsifga ega bo‘ladi. Ya’ni, o‘qituvchi uchun o‘quvchi nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o‘quv materiali yaxshi o‘zlashtirilganu, qaysi biri hali yaxshi o‘zlashtirilmaganligi yoki umuman o‘zlashtirilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘zining faoliyatiga tanqidiy baho beradi. Olingan natijalarga

ko‘ra faoliyatiga qo‘shimchalar kiritadi, o‘quvchilarga nisbatan qanday yondashish metodlari va vositalarini tezroq topib oladi. Bu o‘qituvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi uchun negiz hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, o‘quvchiga ham o‘quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani tushunarli bo‘ladi. Bilimlarni nazorat qilmasdan o‘quvchi o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to‘g‘ri baholashga qodir emas, ba’zan unga guyo o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, lekin nazorat chog‘ida esa o‘zlashtirishdagi kamchiliklar, yaxshi tushunmaganligi ma’lum bo‘lib qoladi. Nazorat qilib baholash jarayonida o‘quvchining o‘rganilayotgan o‘quv materialini tushunish, esda saqlab qolish, mohiyatini anglab olish darajasini aniqlaydi. O‘quvchining faolligi orqali bilimlari, ko‘nikma va malakalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarda o‘qishga, o‘z yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, muammolarni yechish istagi tug‘iladi. O‘quvchiga nisbatan berilgan baho unda hamisha o‘quvchi sifatida, shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. O‘quvchida o‘ziga nisbatan irodalilik, jamoaviylik, o‘zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlar shakllanadi. Bu, ayniqsa, o‘smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Har bir ta’lim beruvchi bilimlarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri qo‘llay olsa, har bir o‘quvchi oldida, o‘qitish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi.

Ilm fan, texnikaning rivojlanib borishi, ishlab chiqarishning o‘sishi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham aniq, qat’iy mezonlar asosida tarbiyalanuvchining bilim va faoliyat darajasini baholash lozimligini kun tartibiga olib chiqdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ijtimoiy taraqqiyotning mislsiz tezligi o‘quvchilarining bilimi, ko‘nikma va malakalari darajalarini qisqa vaqt oralig‘ida xolis baholash imkonini beruvchi, nazoratning yangi usulini yaratishni taqoza etdi.

Ana shu zaruratning samarasi sifatida o‘quvchining bilim darajasini aniqlovchi reyting tizimi ishlab chiqildi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 19 mayda 1812-son bilan ro‘yxatga olingan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining 2008 yil 30 apreldagi 01-148Q/q, 118,16/QQ- son qarori bilan tasdiqlangan “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizomi asosida amalga oshirilmoqda.

Bunda o‘quvchilaini bilim saviyasini nazorat qilib baholashning reyting tizimi quyidagi maqsadlarni ifodalaydi:

- a) kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar saviyasini shakllanganligi darajasini nazorat qilish;
- b) o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, anqlik, haqqoniylik, ishonchlik va qulay shaklda baholashni ta’minalash;
- v) o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini darajalarini taqqoslash va ta’lim jarayonida o‘zaro musobaqa muhitini yaratish;
- g) o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha kompleks hamda uzlusiz tayyorgarligini ta’minalash;
- d) o‘quvchilarning har bir fan va amaliyat turlari bo‘yicha o‘zlashtirish darajalarini aniqlash;
- ye) o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar saviyasini shakllanish sur’atini muntazam ravishda tahlil qilib borish.

Nizomga ko‘ra o‘quvchilarning bilim saviyasini reyting tizimida nazorat qilib baholash uchta nazorat turi asosida amalga oshiriladi.

1. joriy nazorat - so‘rovlari, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar (diktant, bayon, insho) va testlar tarzida bilim, malaka va ko‘nikmalar tekshiriladi;

2. oraliq nazorat - semestr tamom bo‘lganda va o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Uning asosida o‘quvchi reytinggi aniqlanadi. Bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni baholash uchun oraliq nazorat imtihonlar, testlar, sinovlar, kurs va malaka ishlari shaklida o‘tkaziladi;

3. yakuniy nazorat - akademik litseyda, kasb-hunar kollejida o‘qish tugallangandan keyin davlat attestatsiyasi: imtihonlar, testlar, malaka ishlari, diplom loyihalarini himoya qilish shaklida amalga oshiriladi.

Fan tugallanishida yakuniy nazorat test usulida o‘tkaziladi. Boshqa hollarda yakuniy nazoratning o‘tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Har bir kursda o‘qish tugagandan keyin reyting nazorati natijalariga ko‘ra o‘quvchilarni keyingi kursga o‘tkazish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

Reyting tizimini joriy qilishda quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi zarur:

a) har bir fan bo‘yicha tegishli kafedralar tomonidan ma’qullangan variantlar asosida boshlang‘ich nazorat o‘tkaziladi. Boshlang‘ich nazorat reyting monitoringi va tahlil guruhi tomonidan o‘tkaziladi;

b) o‘quv dasturining mantiqan tugallangan bo‘limi bo‘yicha o‘quvchi albatta baholanadi va natijasi o‘tish balidan (3 ball) past bo‘lganda qayta nazorat belgilanadi. Ushbu bo‘limlarni tegishli kafedralar aniqlaydi;

v) yakuniy nazorat kafedralar tomonidan tuzilgan variantlar asosida reyting monitoringi va tahlili guruhi kuzatuvi ostida o‘tkaziladi.

**JN** - o‘quvchining semestr davomida joriy nazorat bo‘yicha butun songa yaxlitlangan o‘rtacha bali,

**ON** - o‘quvchining semestr davomida oraliq nazoratlar bo‘yicha butun songa yaxlitlangan o‘rtacha bali.

Agar fanning semestr bo‘yicha yuklamasi 24 soatdan kam bo‘lib, oralik nazorat o‘tkazilmagan taqdirda,

R семестр=(ЖН+ЯН)/2, bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida reyting tizimini to‘laqonli joriy etish, o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish, reyting natijalarini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadida uslubchi, elektron hisoblash mashinasi operatori, kafedra mudirlari, psixolog va boshqa tajribali o‘qituvchilardan iborat reyting monitoringi va tahlil guruhi tuziladi. Unga dekanning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rbbosari rahbarlik qiladi.

Albatta, ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, biroq o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini nazorat qilib baholash masalasiga dolzARB pedagogik muammo sifatida qaralmaydi.

Bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarlik darjasini respublikamizda yetarli darajada ishlanmagan muammo hisoblanadi. Shu boisdan bu muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari soni ham unchalik ko‘p emas. Shunday qilib baholashning asosiy masalalari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

Kimni?

Kim?

Nimani?

Nima uchun?

Qanday mezonlar asosida?

Nimalardan foydalanib?

Qachon?

Qaerda?



baholash kerak?

Bu masalalarni majmuaviy hal etilishi ma’lum huquqiy, me’yoriy asoslarga tayangan holda kasb-hunar ta’limi tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaning maqbul yechimini topishga imkon beradi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi kichik mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy tayyorgarlikning muhim komponentlari (elementlari) bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar hisoblanadi.

O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi ularning jamiyatdagi o‘z o‘rnilarini anglashi, vatan, oila va jamiyat oldidagi burch hamda majburiyatlarini anglashi, individual qobiliyati kabilarga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchining ijodiy faolligi uning individual xususiyatlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchining ijodiy faolligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari mavjud ziddiyatlarni his qilish, ularning yechimini topish uchun aniq maqsadga muvofiq onglilik, faollik, mustahkamlik, ijodkorlik kabi xislatlarning tarkib topishida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining mushtarakligi ta’minlanishi lozim. Pedagogik qonuniyatlar bu jarayon ishtirokchilarining hamkorligini, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini uzviyligi hamda uzlucksizligini ta’minlab ta’limning umumiy prinsiplari orqali amalga oshirilsa, ishlab chiqarish qonuniyatları o‘quvchilarning ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashda kasbiy ta’limning xususiy prinsiplari orqali amalga oshiriladi. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda ta’lim mazmunining xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim mazmuni- Davlat ta’lim standarti, tarmoq ta’lim standarti, o‘quv reja va dasturlarida, darslik, didaktik materiallarda hamda guruh jurnallarida o‘z ifodasini topadi. Ta’lim mazunini amalga joriy etishda ta’lim texnologiyalari (shakl, metod va vositalar) ni maqbul va bir-biriga uyg‘un tanlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘ylab ko‘riladi. Olingan natijalar esa me’yoriy yoki mezoniy baholanadi. Bunda umumta’lim, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini uzviy aloqadorlikda o‘rganilishi o‘quvchilarda tizimli bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim natijalarini baholashni ilmiy asoslash shuni anglatadiki, bunda dalillarga asoslangan va tashqaridan kuzatiladigan istagan belgilar emas, balki muhim aloqalarning tavsifini belgilovchi dalillarga asoslanganlik tushuniladi.

Pedagogik nazorat orqali o‘quvchilar faoliyati tahlil etilib, ularning xato va kamchiliklari tuzatiladi hamda baholanayotgan o‘quvchi faoliyati boshqa o‘quvchilar

uchun mavzuni takrorlash vazifasini ham o‘taydi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘quvchilarni baholash orqali ularning faoliyatiga o‘zining befarq emasligini ham namoyon etadi.

Baholash - bu o‘qitilganlikni o‘lhash jarayonidir, baho-o‘qitilganlik natijasi ekanligini inobatga olsak, ta’lim tizimida qo‘llaniladigan nazorat turlari (boslang‘ich, joriy, oraliq, yakuniy) yoki maxsus tekshiruvda (sinov, imtihon, bilimlarni test sinovidan o‘tkazishda) qo‘yiladigan baholar yoki ballar tizimi ko‘pincha olingan baholarni hisoblash asosida o‘zlashtirish degan tushunchaga qarab ish ko‘riladi. Bu tavsiflarning hammasi faqat bilimlar, ko‘nikmalar va malakalargina emas, balki butun o‘qitishning ham umumiylashtirilgan ko‘rsatkichi deb hisoblanadi. Lekin, tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, nazorat qilish yoki baholashning an’anaviy uslublarini tahlil qilish, ta’lim sifatini baholash tizimi pedagogik o‘lhashlarning ob’ektiv uslublariga tayanmasligini ko‘rsatadi, shuning uchun ta’lim jarayonida sifat ko‘rsatkich yetarlicha talqin qilinmaydi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish yoki baholash masalasida ikkita turlicha jarayon bilan ish ko‘rishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: **birinchidan**, bilimlar darajasini aniqlash; **ikkinchidan**, mazkur jarayonning qimmatini belgilash.

Bulardan faqat ikkinchisi baholash hisoblansada, birinchisi taqqoslashda amalga oshiriladigan o‘lhashdir. Bunda boslang‘ich daraja erishilishi lozim bo‘lgan daraja bilan taqqoslanadi va olinadigan natijaning o‘sishi, samaradorligiga qarab baholar tanlanadi.

Bilimlarni baholashning sub’ektivligi ma’lum darajada bilimlar tizimini nazorat qilish uslublarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liq. Ko‘pincha mavzu, kurs yoki uning bo‘laklarini baholash shakllantirilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar butun tizimning o‘zlashtirishini aks ettirmasligi mumkin bo‘lgan ayrim, ko‘pincha ikkinchi darajali elementlarni tekshirish yo‘li bilan yuz beradi. Savollarning sifati va izchilligi har bir o‘qituvchi tomonidan intiutiv ravishda aniqlanadi. Butun mavzuni tekshirish uchun nechta savol berilishi kerakligi, topshiriqlarni ularning diagnostik qimmati bo‘yicha qanday taqqoslash kerakligi noaniq.

O‘quvchilar bilimini baholashda psixologik omillarni, o‘qituvchining umumiy va maxsus tayyorgarligini, uning shaxsiy sifatlarini (qat’iyligi, javobgarlik hissini) ham hisobga olish lozim. Chunki, bular barchasi ma’lum darajada bilimlarni tekshirish va baholash natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning shaxsiy sifatlari o‘qitishning xarakterida ham, bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham albatta namoyon bo‘ladi. Binobarin, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bilimlarni baholashda va tekshirishda sub’ektivlikni istisno qilish muammosi yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi.

Bu muammoni tadqiq etishdagi boshqa bir yo‘nalish baholashning tarbiyaviy vazifalarini o‘rganish bilan qo‘yiladigan bahoning o‘quvchini o‘z-o‘zini baholashning shakllanishiga o‘quvchilarning fanga qiziqishiga va munosabatiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq. O‘qituvchining bahosiga o‘quvchi rozi bo‘lganidagina u ijobiy samara berishini tadqiqotchilar allaqachon aniqlashgan. Shunday qilib, o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash juda ko‘p ob’ektiv va sub’ektiv omilarga bog‘liq bo‘ladi.

Baholash tizimi o‘quv maqsadlariga mos bo‘lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan o‘quvchilar oldindan tanishgan bo‘lishlari lozim. O‘quvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

Bizningcha, bilimlarni tekshirish va baholashda quyidagi asosiy kamchiliklar uchrab turadi;

-baholashning vazifalarini noto‘g‘ri tushunish:

-ta’lim jarayonida baholashning rolini asossiz ko‘tarib yuborish:

-tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi:

-bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyalardan foydalanish:

-baholarni qo‘yishda sub’ektivizmga yo‘l qo‘yish va aniq, asoslangan mezonlarning mavjud emasligi:

- o‘quvchi bilimini tekshirish va baholashda bu jarayonni nazorat qiluvchi, ta’lim-tarbiya beruvchi muhim vazifani bajarishini unutmaslik kerak.

Baholashda uchraydigan xatolarning oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

▪ Baholashdan oldin ta’lim oluvchilar bilan talablar va baho mezonlari muhokama qilinishi lozim.

▪ Baho mezonlarga muvofiq qo‘yilgach, ta’lim oluvchilarga ma’lum qilinadi.

▪ O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo‘l qo‘yilgan xatolarni muhokama qilishlari hamda sababini aniqlashlari lozim.

O‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish bo‘yicha joriy nazorat olib borilsa o‘qituvchining vazifasi ustun bo‘lishi kerak. Masalan, o‘qituvchi ba’zi o‘quvchilarni tizimli ishslashga o‘rgatishga intiladi, baho bilan rag‘batlantirib, ularning ruhiy xususiyatlariga (irodasini rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va h.k.) ta’sir etishga harakat qiladi, me’yordan ortiqcha o‘ziga bino qo‘yish holatlarida bahoga qat’iy yondashib ish ko‘riladi. Ushbu vazifalarga muvofiq o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholashning aniq usullari tanlanadi.

O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini aniqlashda ularning faqat umumta’lim, umumkasbiy va ixtisoslik o‘quv predmetlaridan o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikma va malakalariga o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlari uyg‘unligini ta’minlash lozim; o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarni aniqlash va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim; o‘quvchilarda o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda nazorat turlarining mazmun mohiyatini yanada takomillashtirish lozim.

Uzluksiz ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, o‘quv-tarbiya jarayonining an’naviy va noan’naviy shakllari, mazmuni, vositalari, usullari va shart-sharoitlarini amalga oshirilishi o‘quvchilarning yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun xizmat qiladi.

O‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish uchun ularning faoliyatini muntazam o‘rganish, nazorat qilish va baholash pedagogik jarayonning eng muhim jihatlaridan hisoblanadi.

**Nazorat** fransuzcha “controle” so‘zidan olingan bo‘lib, “tekshirish” degan ma’noni anglatib, u boshqarish sub’ekti tomonidan amalga oshirladigan boshqaruv qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirilishining borishi ustidan kuzatuv

olib borish, shuningdek tashkilotning xizmat faoliyatini haqiqiy holatini tekshirish chora-tadbirlari majmuidan iborat.

**Pedagogik nazorat** – bu o‘quv jarayonining sifat jihatidan holati to‘g‘risida axborot olish usulidir. Ta’lim jarayoni va uning natijasi ustidan pedagogning nazorat olib borishi ta’lim oluvchilarning faoliyatiga hamda, o‘zining faoliyatiga ham yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ko‘pgina pedagogik manbalar tahlili va olimlarning tadqiqotlarida nazoratning quyidagi ikki tomonlama ahamiyatliligi ta’kidlangan: ***birinchidan***, nazorat o‘qituvchining va ta’lim muassasasining faoliyatini tekshirishning ma’muriy tartibi bo‘lib, uning natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qilsa, ***ikkinchidan***, nazorat o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi.

**Baholash-ta’lim-tarbiya** jarayonida ta’lim beruvchi yoki ta’lim muassasasi tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv faoliyatini, ularda mavjud o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganlik darjasini sifatini qabul qilingan talablar, mezonlar asosida tahlil qilish va o‘lchashdan iborat.

Pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning og‘zaki, yozma va test usullaridan foydalaniladi.

Nazorat qilishda baholashning qanday usulidan foydalanishdan qat’iy nazar ularga qo‘yiladigan umumiyligi talab, o‘quvchilarga aniq savollar bilan murojaat qilish orqali ularni nazoratga ko‘proq jalgan etishdir.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini kam vaqt sarflab tezkor nazorat qilish hamda aniqlashda nazoratning test usuli ahamiyati katta.

**Ikkinci darajadagi testlar** – bu o‘zlashtirishni nazorat qilish uchun mahsulsiz (reproduksiya) darajadagi testlar (axborotni qayta eshittirish va muhokama qilishga, umumiyligi masalalarni yordamga yoki aytib turishga tayanmasdan yechishga imkon beruvchi o‘zlashtirish) bo‘lib, bu turdagisi testlarning eng oddiyilari o‘rniga qo‘yish testlari hisoblanadi. Ularda so‘z, jumla, formula yoki matndagi boshqa biror muhim element atayin tashlab keltirilgan (yozilmagan) bo‘ladi.

Axborotni qayta tiklash tufayli ikkinchi darajadagi barcha testlar ularni bajarish sifatini baholashda oldindan ifodalangan etalondan foydalanishga imkon beradi, bu o‘quvchilarning bilimini, o‘qitish jarayoni sifatini baholashda ob’ektivlikning zaruriy sharti hisoblanadi.

**Uchinchi darajadagi testlar** - o‘quvchilarning bilimlarni egallaganliklarini tahlil qilish uchun har safar bilim, ko‘nikmalar darajasiga mos keluvchi samarali faoliyatga ega bo‘lgan maxsus topshiriqlarni ishlab chiqishdir. Uchinchi darajali testlar masalani yechish mohiyatiga ko‘ra, uni jumboqlashtirilgan holatlardan “tozalash” yo‘li bilan va ularda yashiringan qo‘sishma shartlarni topish yo‘li bilan umumiylashtirishdan iborat bo‘ladi.

Ikkinci va uchinchi darajadagi testlar o‘rtasidagi farq shundaki, birinchi holda testni bajarish davomida o‘quvchi faoliyat usullari to‘g‘risidagi avval o‘rganilgan axborot bilan faqat amallar bajaribgina qolmay, balki o‘ziga avval ma’lum bo‘lmagan yangi natijani ham oladi.

Uchinchi darajadagi testlarni bajarish davrida o‘quvchi har safar o‘zi uchun harakat qilishning o‘ziga ma’lum bo‘lgan usulidan yangi vaziyatda qanday foydalanish kerakligi masalasini hal qiladi. Ikkinci darajadagi testlarni bajarishda o‘qitish jarayonida turlicha bo‘lgan vaziyatlarga nisbatan qo‘llanilgan xatti-harakat usullarini bilishini namoyish qiladi. O‘quvchi umumiylashtirishdan misollardagi harakat qilish (amallarni bajarish) ning unga xabar qilingan qoidalarini qayta tiklab, o‘zi uchun boshqa hech qanday yangi axborot olmaydi.

**To‘rtinchi darajadagi testlar** - o‘quvchilarning yangi muammoli vaziyatlarda mo‘ljal ola bilish va maqbul qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini namoyon qiladi. Bunday testlarni tuzish o‘z-o‘zidan ancha murakkab pedagogik masaladir. To‘rtinchi darajali testlar – bu shunday muammolarki, ularni yechish-ob’ektiv yangi axborotni olish bilan amalgalashuvchi ijodiy faoliyatdir.

To‘rtinchi darajadagi testlarda muammoli vaziyatni yaratishning quyidagi ikkita yo‘li mavjud. Birinchisi yechilishi faqat maxsus jurnallarda yoki to‘plamlarda nashr etilgan, tadqiq qilinib bo‘lingan muammolarni o‘quv maqsadlarida foydalanish. U holda muammoning topilgan va nashr etilgan yechimi to‘rtinchi darajadagi mazkur

testning etaloni bo‘lishi mumkin. Agar o‘quvchi yangi yechimini topsa, bu yechim nashr etilgan yechim bilan taqqoslanadi To‘rtinchi darajadagi testlarni yaratish uchun oxirgi holatda ikkinchi yo‘ldan foydalanish mumkin, uning mohiyati quyidagicha: testning topshirig‘i sifatida yechimi hozircha topilmagan muammo ifodalananadi. Etalon sifatida ekspertlar tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatni yechish yo‘llaridan foydalaniladi.

Bunday muammolarni yechishda o‘quvchining ilmiy topqirligi, asoslangan farazlarni ilgari surish va tekshirish ko‘nikmalari, tegishli tadqiqot metodikalarini qo‘llay olish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xulosalarni va qiyinchiliklarni oldindan bilish ko‘nikmalari namoyon bo‘ladi.

Test o‘quvchi dastlabki qo‘yilgan maqsadlarga qay darajada erishganini baholash vositasidir. Shunday qilib, testda o‘qitishning avval ifodalangan maqsadlari bilan ma’lum darajada bog‘liq bo‘lgan savollar bo‘lishi kerak.

Test savoli asoslardan va muqobillardan iborat. Asosda masalaning savoli yoki ifodalaniishi, shuningdek (zarur bo‘lganda) uni hal qilish uchun axborot bo‘lishi kerak. Muqobillardan biri sifatida ikki xil ma’noga ega bo‘lmagan to‘g‘ri javob bo‘lishi kerak. Qolgan muqobillar noto‘g‘ri bo‘lishi kerak, ular “distraktorlar” (“chalg‘ituvchilar”) deb ham ataladi.

Bunday turdagи test so‘rovnomalarni ishlab chiqishda test doirasidagi savollar javob berishi kerak bo‘lgan quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

**O‘rinlilik.** Savolning o‘rinli bo‘lishi, ya’ni test muallifi uning yordamida nimani baholamoqchi ekanligi aniq bo‘lish kerak. Boshqacha aytganda savol bo‘lim (kurs) maqsadlariga va o‘quvchining o‘zlatirish darajasiga mos kelishi zarur.

Bunda savol o‘quvchilar bilmaydigan so‘zlardan foydalanmaslik lozim, aks holda test o‘quvchilarning lug‘at zahirasini baholashga aylanib qolishi mumkin.

Mualliflar savolda so‘zlar o‘yini yoki biror hiyla yo‘qligiga ishonch hosil qilishlari lozim, agar noto‘g‘ri muqobilini ifodalashda qisqacha inkor qiluvchi so‘z (“yo‘q”, “emas” “birortasi ham emas”) foydalanilganda, hiyla o‘rinli bo‘lishi mumkin.

**Ob'ektivlik.** Agar savolga bir nechta ekspert javob berib, albatta to‘g‘ri javobni tanlasalar, savol ob’ektiv hisoblanadi.

**O‘ziga xoslik.** Agar savolga mazkur o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan o‘quvchilargina javob bera olishsa, u holda savolni biror mavzuga nisbatan o‘ziga xos deb atash mumkin. Bunda savollarning muallifi savol matniga indikatorlar deb ataluvchilarni kiritib, osongina xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Indikatorlar – bu yetarlicha aqlga va keng dunyoqarashga ega o‘quvchilarga u yoki bu materialni bilmasa ham unga to‘g‘ri javob berishiga imkon beruvchi savol matnidagi tasodifiy ishoralardir.

**Samaradorlik.** Agar savolda zarur axborot bo‘lib, unga javob berish uchun ko‘p vaqt talab etmasa, u samarali bo‘ladi. Shu munosabat bilan savol qisqa, aniq, oddiy va imloviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Bilimlarni test yordamida nazorat qilish qismlarga bo‘lib o‘rganilagan materialning yetarlicha katta qismini tez tekshirishga, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini tahlil qilishga va o‘quv jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritishga imkon beradi. Test nazoratini qo‘llashdagi muntazamlilik o‘quvchilarda yangi dasturiy materialni o‘zlashtirishda kim o‘zarlikni, intilishni, avval o‘rganilganlarni takrorlashni va bilimlarni tartibga solishni shakllantiradi.

Test sinovlaridan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, test sinovidan o‘tkazish texnologiyasiga qat’iy rioxaya qilinganda nazorat qilish natijalarining ob’ektivligi, ta’lim olayotganlarning shaxsiga bog‘liq bo‘lmasi, yetarlicha aniq va ishonchlilik ta’milanadi.

Ishlab chiqarish ta’limining o‘zlashtirilishini hisobga olib baholash o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan ishlari turlarini bajarish malakalarini qay darajada egallaganliklarini, belgilangan normalar va texnik sharoitlarda (ishlab chiqarish ta’limi dasturi doirasida) ishlarni mustaqil bajara olishlarini aniqlash va o‘quvchilar o‘zlashtirgan ixtisos darajalarini belgilash maqsadida o‘tkaziladi.

O‘quvchilar bilimini baholash ilmiy jihatdan asoslangan va tekshirilgan tamoyillar asosida o‘tkaziladi. Bu tamoyillar:

1. Muntazamlilik tamoyili- ishlab chiqarish ustasi tomonidan o‘quvchilarning mavzu va uning bo‘limlarini yoki ish turlarini o‘zlashtirishlarini muntazam ravishda tekshirib borishidir.

2. Xabardorlik tamoyili- ishlab chiqarish ustasining o‘z ishidagi, ham ishlaridagi xato va kamchiliklarni aniqlab olish uchun o‘zlashtirishni onda-sonda emas, balki muntazam ravishda hisobga olib borishidir.

3. Har tomonlamalilik tamoyili- o‘tilgan mavzu yuzasidan kasbiy bilimlar, hosil qilingan ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini to‘liq aniqlashdir.

4. Individuallik tamoyili- umuman guruhlar emas, balki har bir o‘quvchining ham bilim, ko‘nikma va malakalarini darajasini aniqlashdir.

5. Differensiallik tamoyili-o‘rganilayotgan material tasnifi, ishlab chiqarish talablarini, ishlarning murakkabligini, ta’lim berish davrini hisobga olish, o‘quvchilarning olgan bilimlari, egallagan ko‘nikma va malakalarini baholash.

O‘quvchilar o‘zlashtirishlarini baholashda ob’ektivlik asosiy talab hisoblanadi.

Ayrim ishlab chiqarish ustalari o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Masalan, darsda aniqlangan amaliy ko‘nikma va malakalarni hisobga olmay, baholash mezoniga amal qilmay, balki o‘quvchini taqdirlash yoki jazolash maqsadida baho qo‘yadilar; xulqi uchun jazolash sifatida o‘zlashtirish bahosini pasaytiradilar; o‘quvchilarning individual xususiyatlariga e’tibor bermaydilar.

Baholar o‘quvchilarning o‘zlashtirishini aniq aks ettirishi lozim. O‘quvchilar bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini baholash vaqtida yumshoq ko‘ngillik ham, ortiqcha qatiqko‘llik ham ishga zarar keltiradi. Odilona baho o‘quvchiga muhim tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ishlab chiqarish ustasi o‘quvchilarda bilimlar, ko‘nikma va malakalarni ongli ravishda puxta egallah istagi uyg‘otib, baholashdan ustalik bilan foydalanishi lozim.

Bilimlarni tekshirish va baholashning tarbiyaviylik xarakteri o‘quvchilarga ta’limga bo‘lgan munosabatda yuksak darajadagi onglilik va mas’uliyat hislarini singdirishdan, ularda tekshirishning, o‘z-o‘zini baholashning ahamiyatini tushunish,

o‘z xato va kamchiliklarini topa olish, ularning sabablarini tahlil qila olish odatlarini tarbiyalashdan iborat.

Demak, bilim, ko‘nikma va malakalarni hisobga olib baholashdagi ob’ektivlik bilim, ko‘nikma va malakalar qaysi masalalar asosida baholanadigan bo‘lsa, o‘sha masalalarni puxta o‘ylab olishni, diqqat bilan o‘quvchilarning javoblarini tinglashni hamda yozma va amaliy ishlarini tekshirishni talab etadi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarning kasbiy-texnikaviy bilimlarni o‘zlashtirganliklarini baholash ta’lim-tarbiya jarayonining eng muhim qismi hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning ishlab chiqarish ta’limidan olgan bilimlari, hosil qilgan ko‘nikma va malakalarining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ish usullari, mehnatni va ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish;
- texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- belgilangan vaqt normalarini (ishlab chiqarish) bajarish;
- o‘quv topshiriqlarini bajarishda mustaqillik darajasi.

Bu ko‘rsatkichlarning ahamiyati kasb xarakteriga, o‘qish davridagi ta’lim-tarbiya vazifalariga qarab o‘zgarib turadi. Chunonchi, o‘quvchilarning ishlab chiqarish mavzularini o‘zlashtirishlarini baholash paytida ish usuli va yo‘llarining to‘g‘riliqi, mehnatni hamda ish joyini ratsional tarzda tashkil etish, o‘quv-ishlab chiqarish ishlari sifatiga texnik jihatdan qo‘yiladigan talablarga rioya qilish, xavfsizlik texnikasi qoidalarini bajarish asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

O‘quvchilarning ishlab chiqarish mavzularini qay darajada o‘zlashtirganliklari quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi:

1. Xatosiz va mustaqillikda to‘la bajarilgan ishslashning yo‘l hamda usullari, belgilangan talablar doirasidagi sifat ko‘rsatkichlari, mehnatni va ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil qilish “a’lo” baho bilan;

2. Ishning barcha yo‘l hamda usullarini onda-sonda uchraydigan va uncha ahamiyatsiz kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan holda o‘quv texnika talablari doirasida mustaqil ravishda to‘g‘ri bajarish, mehnatni hamda ish joyini tashkil qilish qoidalariga rioya qilish “yaxshi” baho bilan;

3. Ishning yo‘l va usullarida operatsiyalarni uncha ahamiyatsiz kamchiliklar bilan bajarish, kamdan-kam holatlarda yaroqsiz bo‘lishiga olib keladigan, belgilangan sifat ko‘rsatkichlarini bajarmaslik, yoki mehnatni tashkil qilishda yo‘l qo‘ygan kamchiliklar “qoniqarli” baho bilan;

4. Ish usullarini qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ygan holda operatsiyalarni bajarish yoki ishda belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga erisha olmaslik, mehnatni tashkil qilishda katta xatolarga yo‘l qo‘yish “qoniqarsiz” baho bilan baholanadi.

O‘zaro uyg‘un birlikda tashkil etgan mavzular (kompleks mavzular) ni o‘zlashtirishni baholaganda sifat va mustaqillikka qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda vaqt (ishlab chiqarish) normalarini bajarish ham talab etiladi.

Majmuaviy topshiriqlarning bajarilishini baholash quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

a) belgilangan texnik talablarga muvofiq bajarilagn ishning a’lo darajadagi sifati; belgilangan normani bajarish hamda ortig‘i bilan bajarish; ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarish vaqtida mehnatni ratsional usullari puxta egallah va ularni bemalol qo‘llay olish hamda ishning har turlarini bajarishda ulardan xatosiz foydalana olish; mehnatni va ish joyini to‘g‘ri tashkil etish, topshiriqlarni rejalashtirish va bajarishda o‘quvchining to‘liq mustaqilligi (ishlab chiqarish ustasining yordamisiz) “a’lo” baho bilan baholanadi;

b) ishni texnika shartlariga muvofiq sifatli bajarish; belgilangan normani bajarish; ishlab chiqarish operatsiyalarini yoki ishlarni bajarish usullarini yetarli darajada puxta o‘zlashtirib olish hamda ishning har xil turlarida ularni qo‘llash; mehnatni va ish joyini to‘g‘ri tashkil etish; o‘quvchilarning ishlab chiqarish ustasining arzimagan yordami bilan topshiriqnini mustaqil rejalashtirishlari hamda bajarishlari “yaxshi” baho bilan baholanadi;

v) ishni texnika talablari doirasida qoniqarli bajarish, lekin ishlab chiqarish ustasidan ko‘rsatmalar olgandan keyin kamchiliklarni tuzatish; belgilangan normani bajarish; ishlab chiqarish operatsiyalari yoki ishlarni bajarishning asosiy usullarini egallah hamda ularni ishlarning har xil turlarida qo‘llash; mehnatni yoki ish o‘rnini tashkil qilishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yish; ishni rejalashtirish va bajarishda

o‘quvchilarning yetarli darajada mustaqillik ko‘rsatmasliklari “qoniqarli” baho bilan baholanadi;

g) a, b, v, bandlarda ko‘rsatilgan mezonlar o‘quvchilar tomonidan bajarilmasa, unda “qoniqarsiz” baholanadi.

Agar o‘quvchining mustaqil bajargan ishi sifat jihatdan “a’lo” yoki “yaxshi” bahoga arzisa-da, lekin vaqt (ishlab chiqarish) normasini ko‘ngildagidek qilib bajarmagan bo‘lsa, ishlab chiqarish ustasi o‘quvchining ishini tegishli tarzda bir ballga pasaytirib baholash imkoniyatiga ega.

?

### **NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR:**

- 1.Talabalar bilimini baholash ilmiy jihatdan asoslangan va tekshirilgan qanday tamoyillar asosida o‘tkaziladi?
2. Talabalarning ishlab chiqarish mavzularini qay darajada o‘zlashtirganliklari qanday baholash mezonlari asosida baholanadi?
3. Majmuaviy topshiriqlarning bajarilishini baholash qanday mezonlar bilan belgilanadi?
4. Talabalarning ishlab chiqarish mavzularini qay darajada o‘zlashtirganliklari qanday baholash mezonlari asosida baholanadi?

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-amaliy mashg‘ulot**

**Mavzu: Mutaxassislik fanining maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.**

**1-topshiriq.** Matnni o‘qing va matn so‘nggidagi savollarga javob bering. O‘z fikringizni qo‘sishimcha qiling.

**2-topshiriq.** Mutaxassislik fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni haqida fikr bildiring.

Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishning maqsadi – kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning asosi hisoblanib, u ta’lim oluvchilarni mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi vazifalar ustuvor sanaladi:

1. Oliy ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma, yaratilgan shart-sharoit, o‘rganish uchun ajratilgan vaqt, jamiyat va davlatning talablari hamda ehtiyojlarini aniqlash.
5. Kasbiy tayyorgarlik jarayoni ishtirokchilarining o‘zini-o‘zi rivojlantirishga oid metodikalar (amaliy topshiriqlar)ni ishlab chiqish.
6. Nazariyani amaliyot bilan o‘zaro integratsiyalab mashg‘ulotlarni tashkil etish.
7. Innovatsion yondashuv hamda unga mos o‘qitish, o‘rganish metodikasini tanlash. Bu vazifalarning ijrosi ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliyotda qo‘llanilib, ularning kompetentligi rivojlanadi hamda kasbiy madaniyat darajasigacha takomillashtirilishi ko‘zda tutiladi.

Mutaxassislik fanlar mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi;

- 1.O‘quv materialida texnikaga bog‘liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlar.
- 2.O‘quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog‘liq masalalar yoritilgan mutaxassislik fanlar.
- 3.O‘quv materialida xom ashyo materiallariga bog‘liq masalalarni yorituvchi mutaxassislik fanlar.
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to‘g‘risida o‘quv materiallarini o‘zida qamrab olgan mutaxassislik fanlar.

O‘quv predmeti – o‘quv muassasasida o‘qitish uchun fanning muvofiq sohalaridan tanlab olingan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, me’yorlar va qadriyatlarning didaktik asoslangan tizimi.

**3. Mutaxassislik fanlari talabalarining maxsus kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida.** Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakli va amalga oshirish metodlari ko‘proq maqsadga, o‘rganilayotgan o‘quv materialining xarakteriga ko‘ra aniqlanadi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonining oqilona tashkil etish shakli va metodlarini aniqlash maqsadida o‘quv materiali mazmuni didaktik tahlil etilib, o‘quv materialining alohida qismini mohiyati, muhimligi uning tarkibiga kirgan tushunchalarning xarakteri va shu kabi xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi.

O‘quv dasturiy materialga fundamental tushuncha va iboralar kiritilganligi nuqtai nazaridan tahlil qilib, quyidagilarga ajratish mumkin:

- Barcha kasb va mutaxassislar tayyorlashga tegishli bo‘lgan tushunchalar;
- texnik qurilmalar mohiyati va ishlab chiqarish ob’ektlarini yorituvchi o‘quv materiali. Bunga jihozlar tuzilishi va ishlash tartibining nazariy asoslari (elektrotexnika, issiqlik texnikasi, gidravlika, pnevmatika, texnik mexanika, mexanizmlar va mashina nazariyasi, materiallar qarshiligi, mashina detallari va shu kabi nazariy ma’lumotlar);
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi jihozlarning tuzilishi va ishlashi tartibini tushuntirish;
- mehnat qurollari, asbob-uskunalar, dastgohlar, moslamalar, priborlar va shu kabilar, mehnat jarayonida qo‘llaniladigan sun’iy qurilmalar;

- detallar, zvenolar, mexanizimlar, mashinalar, priborlar, apparatlar va buyumlar tuzilishining bayoni, yig'ish, qismlarga ajratish, tuzatish, tayyorlash, xizmat ko'rsatish, sinash kabilarni ifodalovchi o'quv materiallari. Bu materiallarga texnika tili hisoblangan grafik materiallar: diagrammalar, sxemalar, rasmlar, chizmalar texnologik va yo'riqli texnologik xaritalar kabilarni misol keltirish mumkin.

Ishlab chiqarish texnologiyasiga oid materiallar:

- texnologik jarayonlar asosini yoritish (qirqish nazariyasi, termodinamika asoslari kabilar);
- alohida soha yoki ixtisoslikka oid mehnat va texnologik jarayonlar mohiyatini yorituvchi materiallar;
- texnika xavfsizligi, gigiena va ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'inni oldini olish texnikasi kabilar.

Ishlov beriladigan va qo'llaniladigan material va xom ashylarning fizik, ximik, mexanik, texnologik kabi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'ziga qamrab oladi.

Yuqorida zikr etilgan guruh o'quv materiallarining muhimligi nuqtai nazaridan uning o'ziga xos jihatlaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) Tarixiylik xususiyatiga ega. 2) Kasb va mutaxassislik asosi. 3) Umumilmiy va umumkasbiy o'quv predmetlaridan o'zlashtirilganlarga tayanadi. 4) O'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga asos hisoblanadi. 5) Texnik va texnologik qurilmalar, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini, uni tashkil etish, amalga oshirish va iqtisodiy ko'rsatkichlari kabilarni yoritadi. 6) O'rghanish uchun maxsus jihozlar, qurilmalar, vositalar, shart-sharoit kabilarni talab etadi. 7) Mazmuni sabab-oqibatli aloqadorlikka, ba'zan murakkab jumboq tavsifga ega bo'lib, o'rghanish uchun nisbatan ko'p vaqt talab etadi. 8) Fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish jarayonlarini o'zida ifodalaganligi bois dinamik o'zgaruvchan bo'ladi. 9) Aniq texnologik qurilmalar va texnologik jarayonlar mohiyati yoritilganligi bois uning mazmuni amaliy xarakterga ega. 10) O'rghanish ob'ektlari har tomonlama yoritilganligi bois majmuaviy xarakterga ega. 11) Amalda kasbiy, ixtisoslik, mutaxassislik, maxsus fan sifatida qo'llaniladi. 12)

Tizimli-integrativ yondashuv hamda unga mos o‘qitish, o‘rganish metodikasini talab etadi va shu kabilar.

Yuqorida zikr etilganlarning barchasi bir tomondan ularning mazmunini tahsil oluvchilarga oqilona bayon etishni talab etsa, ikkinchi tomondan, ularni mustahkamlash, takomillashtirish, amalda qo‘llashni talab etadi.

So‘nggi yillarda respublikamiz pedagog olimlari ishlarida ixtisoslikka oid o‘quv predmetlari bo‘yicha mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga oid ulkan ijodiy ishlar olib borilmoqda. Bu ijodiy izlanuvchanlikka yo‘naltirilgan ishlarni quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin:

- uzviy aloqadorlikni ta’minlash;
- darslarni o‘tkazishda shablon va bir qoliplilikni bartaraf etish, o‘quv jarayonida turli tuzilmadagi darslarni qo‘llash;
- yangi materialni tahsil oluvchilarga yetkazish bilan uni shu darsni o‘zida mustahkamlashning turli shakllari, metod va vositalarini uyg‘unlashtirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini ta’minlashning muhim vositasi sifatida mashqlar tizimini kiritish;
- ishbilarmonlik, rolli, labirent va boshqa didaktik o‘yinlardan foydalanish;
- tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari turlari va miqdorini aniqlash;
- o‘zlashtirilgan o‘quv materialini mustahkamlashning aniq tizimi va mexanizmini yaratish;
- o‘quv materialining asosiy, bosh g‘oyani ifodalovchi tushuncha va iboralarni har tomonlama mukammal o‘rganish va mustahkamlash;
- tahsil oluvchilarni mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganishga o‘rgatish;
- tahsil oluvchilarning uy ishlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘rganilayotgan nazariy o‘quv materiallarini ishlab chiqarish ta’limi bilan uzviy bog‘lab o‘rganish;
- individual so‘rovlarni kamaytirish va frontal so‘rovlardan doirasini vaqt nuqtai nazaridan kengaytirish;
- individuallashtirish imkoniyatlarini beradigan ijodiy mustaqil ishlarni qo‘llash kabilar.

**Nazariya va amaliyotning birligi.** Odatda, mutaxassislik fanlarining o‘quv dasturida amaliyotdan avval nazariya o‘qitilishini talab qiladi. Ammo mutaxassislik fanlarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi kerak. Shuning uchun ham mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv materialining nazariy qismini shakllantiruvchi mualliflar o‘quv dasturidagi amaliy mashg‘ulotlar mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish shart-sharoiti bilan ham tanish bo‘lishi va uni hisobga olishi shart. Shuningdek, amaliy qism bo‘yicha o‘quv materialini shakllantiruvchilar talaba qanday nazariy bilimga ega ekanligidan xabardor bo‘lishlari kerak.

?

### NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarining maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot bering.
2. Mutaxassislik fanlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar va uni tanlab olish mezonlarini tushuntiring.
3. Mutaxassislik fanlari talabalarning maxsus kompetensiylarini shakllantiruvchi omil sifatida izohlab bering.
4. “Ixtisos”, “kasb”, “hunar”, “mutaxassislik”, “kasbiy” kabi tushuncha hamda atamalar mohiyatini tushuntiring.
5. Mutaxassislik fanlar mazmun va mohiyatiga ko‘ra qanday guruhlarga ajratiladi?

### 2- amaliy mashg‘ulot

**Mavzu: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.**

**Reja:**

1. Ta’lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati.

2. Pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish.
3. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari.

**Tayanch tushunchalar:** faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatni loyihalash, bosqich, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, o‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish, omillar, nazariy ta’minoti, metodik ta’minoti, huquqiy ta’minoti, vaqt ta’minoti, o‘quv modellari.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:** tinglovchilarda pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o’tkazish metodikasi haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish.

**1-topshiriq.** Keyingi ikki yil ichida mutaxassislik fanningizga oid qanday yangi ilmiy materiallar, maqola va adabiyotlarni o‘qib, tahlil qildingiz. Fikringizni bayon eting.

**2-topshiriq.** O‘rgangan ilg‘or tajribalariningizdan namunalar keltiring.

**3-topshiriq.** “Pedagogning innovatsion faoliyati”, “Pedagogik faoliyatni loyihalash” to‘g‘risidagi qarashlaringizni bayon eting.

**4-topshiriq:** Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalashga oid testlar tuzing va ularni yeching.

**5-topshiriq:** “Pedagogning innovatsion faoliyati” mavzusini interaktiv strategiyalar, grafik organayzerlar asosida tahlil qiling.

### **3-amaliy mashg‘ulot: Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil**

#### **ta’limini tashkil etish metodikasi.**

##### **Reja:**

- 1.Mustaqil ish turlari.
2. Faoliyat turlari va bajarilish shakliga ko‘ra mustaqil ishlar mazmuni.

**Tayanch so‘zlar:** fundamental bilim, mustaqil ish, didaktik maqsad, harakatlar algoritmi, standart vazifalar, ijodiy izlanishlar.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:** tinglovchilarda mutaxassislik fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim turlaridan foydalanish haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish.

### **1-topshiriq. Matnni o‘qing. Siz pedagogik faoliyatningizda mustaqil ishning qanday turlaridan foydalanasiz?**

Universitetda ta’lim talabalarga ma’lum bir mutaxassislikni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan fundamental bilimlarni berishga qaratilgan. O‘qituvchilarning vazifasi o‘z ishining malakali ustasini shakllantirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish, vaziyatlardan chiqish uchun turli xil yondashuvlarni tanlashdir.

Talaba mustaqil ravishda bajarishi kerak bo‘lgan vazifalar qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi tashkil etish shakllanadi. Javoblarni mustaqil izlashga kirishgan talaba ma’ruzalarni tinglashdan ko‘ra ko‘proq ma’lumotni eslab qoladi. O‘qituvchi bilan bevosita aloqada bo‘lmagan holda talabaning mustaqil o‘qishini o‘z ichiga olgan faoliyat turi **mustaqil ish** deb ataladi.

Mustaqil ish talabaning salohiyatini oshiradi, uni turli xil ma’lumot manbalari bilan ishlashga, asosiy narsani tahlil qilishga va ta’kidlashga o‘rgatadi. Maktabda o‘qish paytida butun ma’lumotlar bazasi o‘qituvchi tomonidan taqdim etiladi. Shuning uchun o‘quvchi ko‘pincha kerakli materialni o‘zi o‘zlashtira olmaydi. Internetdan foydalanishning o‘zi yetarli emas- ma’lumot oqimini haqiqiy va yolg‘onga ajrata olish ham kerak.

O‘quvchi savollarga javob olish uchun o‘qituvchidan yordam va tushuntirish so‘raydi. Talaba mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirib, birinchi navbatda mustaqil ravishda savollarga javob izlay boshlaydi.

**Talabalarning mustaqil ish turlari.** Didaktik maqsadlarga ko‘ra mustaqil ish bir necha turlarga bo‘linadi.

1. Talabalarga harakatlar algoritmi taqdim etiladi, shu asosida ular muayyan vazifalarni bajaradilar. Bu konspekt yoki darslik bilan birgalikda bo‘lishi mumkin.

2. Standart vazifalarni bajarishga imkon beradigan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish. Shu bilan birga, talabalar ilgari olingan bilimlarni tahlil qilib, amalda qo‘llaydilar. Bu turga laboratoriya, amaliy ishlar kiradi.

3.Ijodiy izlanishlar uchun motivatsiya. Ushbu turdagি vazifalarni bajarishda talabalarning faolligi tadqiqot xarakteriga ega. Ba’zi diplom va ilmiy loyihalarni bunday mustaqil vazifalarga kiritish mumkin.

**Faoliyat turiga ko‘ra mustaqil ish ikki turga bo‘linadi:**

- o‘qituvchi tomonidan muvofiqlashtirilgan;
- individual

**Bajarish shakliga ko‘ra** talabalar uchun mustaqil topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Bir nechta manbalardan konspekt qilish.
2. Berilgan mavzu bo‘yicha referat yozish.
3. Qidiruv va tadqiqot vazifalari. Talabadan o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini tuzish, nazorat savollari yoki testlar tuzish, maxsus kurs yaratish talab qilinishi mumkin.
- 4.Iqtisodiy yoki texnik mutaxassisliklarda-belgilangan sharoitlarda ma’lum hisob-kitoblarni bajarish.
5. Ijodiy loyihalar. Bularga krossvordlar, devor gazetalari, taqdimotlar qilish, grafikalar yoki diagrammalar yaratish, muayyan ssenariylarni o‘ynash kiradi.
6. Seminarlarni tayyorlash.
7. Ilmiy hisobotlarni tayyorlash.
8. Amaliyot natijalari bo‘yicha materiallarni to‘plash va tizimlashtirish.
9. Nazorat hujjatlarini tayyorlash va yozish.

**2-topshiriq:** Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo‘llariga oid testlar tuzing va ularni yeching.

**3-topshiriq:** “**Mutaxassislik fanlari bo‘yicha talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi**” mavzusini interaktiv strategiyalar, grafik organayzerlar asosida tahlil qiling.

**4-topshiriq:** INTERNET ma'lumotlariga asoslanib, “**Mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalarni mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi**” masalalarini tahlil qiling. Individual yoki guruhiy axborotlar tayyorlang.

#### **4- amaliy mashg‘ulot**

**Mavzu: Mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalarni o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilish va baholash metodikasi.**

**1-topshiriq.** Pedagogik kompetentlikni oshirishga va o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilishga mo'ljallangan treningda ishtirok eting.

**Trening maqsadi:** Trening o'qituvchilarning muomala madaniyatini rivojlantirishga, ta'lim sub'ektlari bilan samarali kommunikativ aloqalar o'rnatishga hamda kompetentlikni rivojlantirishga mo'ljallangan.

Ijtimoiy-psixologik trening guruhning bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda guruh a'zolarining o'z-o'zini tushunib yetishi prinsiplari asosida qurilgan. Har bir uchrashuv oldingisining mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Mashg‘ulot guruhda o'zaro ishonch muhitini yaratishga imkon beruvchi mashqlardan boshlanadi.

**Tashkiliy qism.** –Mazkur qismda guruh a'zolarining bir-birlari bilan hamda mashg‘ulot olib boruvchi bilan tanishuvlari amalga oshiriladi. Trening dasturi muhokama etiladi.

Odatda qoidalar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Faollik tamoyili: Mas'uliyat og'irligining mashg‘ulot qatnashchisi zimmasiga o'tkazilishi uning motiv-ehtiyoj va emotsiyal-irodaviy sifatlarini faollashtirishga imkoniyat yaratadi, chunki, u yoki bu masala yechimiga o'z shaxsiy hissasini qo'shish hohishi faol hamkorlik va hamfikrlilikka undaydi.

2. Pozitsiyalar tengligi tamoyili: Mashg‘ulot olib boruvchi qatnashchilar bilan birga mustaqil faoliyatning individual uslublarini ishlab chiqishga qaratilgan birgalikdagi jamoaviy bilish faoliyatiga kirishadi. Shu bilan bir qatorda, mashg‘ulot olib boruvchi muammolar yechimini topishda o'z qarashlarini qatnashchilar qabul qilishlariga majbur etmasligi, balki guruhiy mashg‘ulotning har bir qatnashchisi

navbat bilan ma'lum sharoitda guruh rahbari, guruh yetakchisi bo'la olishi mumkinligini qatnashchilar ongiga singdirishi lozim. Mazkur tamoyilning amalga oshirilishi har bir shaxsning o'ziga xosligi va uning tajribasining o'zgalar tomonidan munosib baholanishini amalda namoyish etishiga imkon yaratadi.

3. Teskari aloqani ta'minlash tamoyili: Ushbu tamoyil faollik tamoyili bilan uzviy bog'liq. Mazkur tamoyilning amalga oshirilishi guruhiy jarayonlarni bir xilda adekvat idrok etishni ta'minlovchi o'zida «o'zga» obrazini yaratishga yordam beradi. «Teskari aloqa» -deganda amaliy mashg'ulotni bajarish vaqtida turli holat va vaziyatlarning barcha qatnashchilar tomonidan bevosita o'z nuqtai-nazarlarini aks ettiruvchi konstruktiv, argumentlashtirilgan fikr –mulohazalarini ochiq muhokama etilishi tushiniladi. Shu bilan birga aniq bir vaziyatga nisbatan o'z munosabatini bildirish abstrakt tarzda emas, balki o'z-o'zini tushunish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarini mujassam etgan holda kechadi.

4. «Shu yerda va hozir» tamoyili: Garchi biror qatnashchi o'z hayotida «o'shanda va o'sha yerda» sodir bo'lgan muammo haqida gapirib, «o'shanda va o'sha yerda» bu xususda ko'nglida kechgan tuyg'ular haqida gapirmasin, baribir uning «shu yerda va hozir» his etayotgan tuyg'ulari asosiy va muhim hisoblanadi.

5. O'zaro ishonch asosidagi muloqot: Guruhda faqatgina o'zaro ishonchga asoslangan, bir-biriga xayrioxlik muhitigina muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha ochiq mulohazalar bildirilishiga sharoit yaratadi. Guruhda zarur darajada ishonchga asoslangan psixologik iqlimni ta'minlash guruh rahbarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

6. Emotsional ochiqlik tamoyili: Qatnashchilar «shu yerda va hozir» his etayotgan tuyg'u va kechinmalarini guruh qatnashchilari e'tiboriga shunday havola etishlari zarurki, ushbu tuyg'u va kechinmalar guruhiy tajriba multiga aylanishi lozim.

7. «Men – mulohaza» tamoyili: O'z tuyg'u va kechinmalarini faqat «Men - axbarot» shaklida bayon etish va doimo o'z nomidan gapirish: «Men.....ni his etaman», «Menimcha,...», «Men o'ylaymanki, ....» va hokazo.

Mashg‘ulot olib boruvchi «Hammamizga ma’lumki, ...», «Har birimiz bilamizki, ...», «Barcha fikrlarga qo’shilgan holda, ...» kabi iboralar ishlatgan qatnashchilarni ehtiyyotkorlik bilan «Aytmoqchisizki, (siz) sizga ...» kabi iboralar bilan tuzatishga harakat qilishi lozim.

8. Shaxsiy javobgarlik tamoyili: Guruhning har bir a’zosi mashg‘ulot jarayonida u bilan kechadigan hodisalar uchun javobgarlikni zimmasiga oladi va boshqa a’zolarga nisbatan suveren shaxs sifatida munosabatda bo‘ladi. Guruh ishining natijalari - guruhdagi har bir a’zoning shaxsiy natijasidir. Shaxsiy hissa qo’shish prinsipi quyidagi mazmunga ega bo‘ladi: Guruhiy jarayonga qancha ko‘p qatnashsang, shuncha ko‘p teskari aloqaga, o‘z ustingda ishlash uchun ko‘proq materialga ega bo‘lasan.

9. Konfedensiallik tamoyili: Guruhda kechadigan voqealarni, guruh qatnashchilari haqidagi mulohazalarni mashg‘ulotda qatnashmayotgan kishilar bilan muhokama qilmaslik, sir tutish. Faqat o‘z harakatlari va kechinmalari haqidagina gapirish mumkin.

10. Erkin tanlov tamoyili: Bu tamoyil asosida qatnashchilar mashg‘ulotga ko‘ngilli ravishda o‘z hoxishlari bilan qatnashishlari mumkin.

Tashkiliy mashg‘ulot davomida guruh qatnashchilari boshqalarga o‘zlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlar haqidagini axborot beradilar va o‘zlarini uchun maqbul nom taklif etadilar. Guruh rahbarining maqsadi: guruhda o‘zaro xayriyoxlik muhitini yaratish va qatnashchilarda ko‘pincha ilk uchrashuvlarda paydo bo‘ladigan ichki ruhiy zo‘riqishlarni yo‘qotishga harakat qilish.

## V. KEYSLAR

### Keys №1. Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish

Hammamizga yaxshi ma'lumki, oliy ta'limda seminar mashg‘ulotlari talabalarda o‘rganilgan materiallarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazilish tartibiga e’tibor qarataylik. Odatda, seminar mashg‘ulotlarini assistant o‘qituvchilar olib borishadi. Seminar mashg‘ulotlarini ham tashkil etishda xilma-xil yondashuv mavjud. Ba’zi professor-o‘qituvchilar mashg‘ulot jarayonida tayyorlanib kelgan talabalardan so‘raydi, ularni baholab qo‘yish bilan cheklanadi. Kimdir ommaviy tarzda savolvajob o‘tkazish orqali maqsadga erishishga harakat qiladi. Biroq reyting tizimi qoidasiga ko‘ra, har bir seminar mashg‘ulotida talabalarning bilimini tekshirib, belgilangan mezon doirasida hammaning ball olishiga erishish lozim. Lekin ko‘pchilik o‘qituvchilar bunga erishish imkoniyati yo‘q, deb hisoblashadi. Ayrimlar esa talabalar yozib kelgan konspekt va faolliklariga asoslangan holda ball qo‘yib berish mumkin, deb hisoblashadi.

**Vaziyatni baholash uchun savollar:** Seminar mashg‘ulotlarini assistant o‘qituvchilar samarali tashkil etmoqdalar deyish mumkinmi? Seminar mashg‘ulotini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak? Seminar mashg‘ulotlarida kutilgan natijaga erishish maqsadida ishni qanday tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq? Seminar mashg‘ulotlarida talabalarning hammasini baholashga qanday erishish mumkin?

Vaziyatni o‘rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

<b>Strength – kuchli tomonlar</b>	
<b>Weakness – zaif tomonlar</b>	

<b>Opportunities – imkoniyatlar</b>	
<b>Threats – tahdidlar</b>	

## **Keys №2. O‘quv portfoliosi.**

Oliy ta’lim muassasalari oldida turgan yana bir muhim vazifalardan biri talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirishga barqaror dominantni yaratish, o‘zida ongli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishdir. Bo‘lajak pedagoglarda kelajakda raqobatbardosh, safarbar bo‘lishlari uchun ularda mustaqillikni shakllantirish juda muhim. Aynan talabalarda mustaqillikni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogga “Portfolio” texnologiyasi yordam beradi. “Portfolio nima?” degan savolga olimlar xilma-xil ta’rif berishgan. Masalan 1) nazorat vositasi (I.A. Knlysh, I.P. Pastuxova); 2) professor-o‘qituvchining baholashga doir faoliyati vositasi (G.B. Golub, O.V. Churakova); 3) ta’lim natijalarini belgilab beruvchi muqobil vosita yoki texnologiya (L.Vanyushkina, T.G.Novikova, M.A.Pinskaya, A.S.Prutchenkov); 4) talabaning zarur va istiqbolli imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko‘rsatib berish, shaxsiy, kasbiy va ijodiy salohiyatini ochib berishning ob’ektiv va maksimal ravishda to‘liq aniqlash vositasi (I.A. Knlysh, I.P. Pastuxova); 5) talabalarning faqat o‘quv faoliyati natijalarinigina emas, balki ularning muvafaqqiyatiga turki bo‘lgan barcha kuch va imkoniyatlarni har tomonlama namoyish qilishga doir ish to‘plami (I.Aldjanova).

O‘quv portfolioning xilma-xil turlari mavjud: 1. “Hujjatlar portfoliosi”. Bunday turdagи portfolio individuall та’limiy muvaffaqiyatlarning sertifikatlangan portfeli: diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar. 2. “Ishlar portfoliosi” o‘zida turli xil ijodiy ishlar, loyihamar, tadqiqot ishlarini aks ettiradi: reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihamar, ijtimoiy amaliyotga doir hisobotlar. Mazkur portfolioda talaba mustaqil va guruhdoshlari bilan bирgalikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joylanadi.

3. “Taqrizlar portfoliosi”da talabaning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi.
4. “Natijalar portfoliosi” belgilangan yo‘nalish bo‘yicha egallanuvchi talabalar mahoratini jamlash uchun qo‘llaniladi; talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlarini o‘zida aks ettiradi. Natijalar portfoliosi individual va guruhli bo‘lishi mumkin. Guruh natijalari portfoliosi g‘oyasidan “Eng yaxshi talabalar guruhi” konkursida foydalanish mumkin. 5. “Baholovchi portfolio” talabalarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish uchun yig‘iladi va turli xildagi nazorat materiallaridan tashkil topadi: nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar. Baholovchi portfolioni pedagog mustaqil ravishda tuzishi va ta’lim olish kursi tugashigacha bo‘lgan vaqtga mo‘ljallashi mumkin.

Hozirgi vaqtda o‘quv portfoliosidan oliv ta’limda foydalanishga harakat qilinmoqda. Asosan, tillarni o‘rgatish jarayonida o‘quv portfoliosini qo‘llashga harakat qilinmoqda.

**Vaziyatni baholash uchun savollar:** Siz nima deb o‘ylaysiz, o‘quv portfoliosini oliv ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyati bormi? Agar qo‘llash mumkin bo‘lsa, o‘quv portfoliosining qanday turlaridan foydalanish mumkin? O‘z fanningiz bilan bog‘liq holda, o‘quv portfoliosini qo‘llash imkoniyatlari haqida fikr bildira olasizmi?

Vaziyatni o‘rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud o‘quv portfoliosidan foydalanish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

<b>Strength – kuchli tomonlar</b>	
<b>Weakness – zaif tomonlar</b>	
<b>Opportunities – imkoniyatlar</b>	
<b>Threats – tahdidlar</b>	

## VI. GLOSSARY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Pedagogika</b>	Pedagogika – ta’lim-tarbiya berish qonuniyatlari haqidagi fandir	Pedagogy is the art or science of teaching and educational methods
<b>Pedagogik mahorat</b>	Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samardorligini belgilovchi shaxsnинг ish sifati va xusu-siyatlari sintezi	It is an art of communicating a message with impact on audience.
<b>Metod</b>	Metod – eng umumiy ma’noda maqsadga erishish yo‘li, usuli	Method – a way of reaching the goal in a systematic way
<b>O‘qitish metodi</b>	O‘qitish metodlari ta’lim maqsadiga erishishga doir usul va qoidalar yig‘indisi	Teaching methods – the principles and methods of instruction
<b>Akmeologiya</b>	Insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i	Acmeology is a new direction of interdisciplinary researches of the person. It is a science studying laws and mechanisms of development of the person during its maturity.
<b>Takt</b>	Takt ahloqiy tushuncha bo‘lib, u insonlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solishni talab etadi	Tact is a verbal operant which is controlled by a nonverbal stimulus (such as an object, event, or property of an object) and is maintained by nonspecific social reinforcement
<b>Pedagogik taktika</b>	Pedagogik takt – o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, o‘quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir o‘tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg‘ulari asosida o‘rnatish o‘lchovi, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish	The pedagogical tact is the base of professional skill of a teacher, which helps in communication with children in the most diverse fields of activity, the ability to choose the right approach to students

	ko‘nikmalarini hosil qilish shaklidir.	
<b>Nutq</b>	Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikrdir	Speech is the vocalized form of communication used by humans, which is based upon the syntactic combination of items drawn from the lexicon.
<b>Qobiliyat</b>	Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida aks etadi	Possession of the qualities required to do something; necessary skill, competence, or power
<b>Kommunikativ qobiliyat</b>	O‘qituvchining ta’lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o‘rnata olish ko‘nikmasi	Communication skills are the key to develop friendships and build a strong social support network with students and other group of people, in order to achieve a pedagogical aim
<b>Pedagogik artistizm</b>	Pedagogik artistizm – pedagogik ijodkorlikning barcha bosqichlarida o‘z aksini topuvchi vogelikdir.	Pedagogical artistry is the phenomenon functioning with varying degrees of activity in the process of pedagogical creativity.
<b>Artikulyatsiya</b>	Nutq organlarining muayyan tovushni talaffuz qilishdagi faoliyati.	Manner of articulation describes how the tongue, lips, jaw, vocal cords, and other speech organs are involved in making a sound make contact.
<b>Battarizm</b>	haddan ziyod tezlashtirilgan nutq. Bunda so‘zlar nihoyatda tez, noaniq talaffuz etilishi, fikrning izchil bayon etilmasligi kuzatiladi.	Pathologically accelerated rate of speech, in which there is an incorrect formation of the phrase, the words are pronounced indistinctly, do not agree.
<b>Verbal muloqot</b>	ikki yoki undan ortiq shaxslarning so‘z, nutqiy vositalar yordamida fikr almashinislari.	Verbal communication refers to the use of sounds and language exchange ideas
<b>Noverbal muloqot</b>	axborot, fikrni so‘zlashuv nutqidan boshqa tana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, xatti-harakat va b.)	Forms of communication which do not rely on the spoken or written word

<b>Intonatsiya</b>	(lot.intonare-qattiq talaffuz qilaman), nutqning ritmik-melodik tomoni, gapning sintaktik ma'nolari va emotsiyal tomonlarini ifodalash vositasi	intonation is variation of spoken pitch that is not used to distinguish words; instead it is used for a range of functions such as indicating the attitudes and emotions of the speaker
<b>Istiora (metafora)</b>	bir predmet-hodisaga xos xususiyatni boshqa predmet-hodisaga ular o'rtasidagi o'xhash belgi asosida ko'chirish.	Metaphor is a figure of speech that makes an implicit, implied, or hidden comparison between two things that are unrelated, but which share some common characteristics.
<b>Kommunikativ qobiliyat</b>	kishilar bilan shaxsiy va ishga oid munosabatlarda qulaylik tug'diradigan shaxsiy qobiliyatlar majmui; o'zgalarni tushunish, qo'llab-quvvatlash, xayrihohlik va hokazo.	A complex of personal skills which creates an easy way of communication in personal and professional contacts; understanding the others, supporintg and so on.
<b>Kommunikativ malaka</b>	kishilar o'rtasida shaxsiy munosabatlarni o'rnatish usuli.	The way of creating personal relationship
<b>Kommunikativ kompetentlik</b>	ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi. Aloqa va munosabatlar o'rnatish, muloqotga moyillik layoqati.	A social knowledge about how and when to use utterances appropriately
<b>Kommunikativ madaniyat</b>	yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik.	Ones having high level communication skills
<b>Kommunikativ texnologiya</b>	shaxslarning o'zaro muloqotga kirishishini ta'minlovchi texnologiya.	Technology which helps people to communicate
<b>Leksika</b>	tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, ya'ni tilning lug'at tarkibi.	A lexicon is the vocabulary of a person, language, or branch of knowledge
<b>Logik urg'u</b>	so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash maqsadida gapdag'i biror so'zni boshqalarga	Logical Stress serves to mark the semantic center of the utterance (a word or a word-

	nisbatan kuchliroq talaffuz etish.	group that carries new information important for the speaker).
<b>Mimika</b>	(yunon.mimikos-taqlid qiluvchi) –turli his-tuyg‘u va emotsiyalarning yuz mushaklari harakatlari va imo-ishoralar orqali ifodalanishi.	It is a form of non-verbal communication or non-vocal communication in which visible bodily actions communicate particular messages, either in place of, or in conjunction with, speech. Gestures include movement of the hands, face, or other parts of the body.
<b>Muomala madaniyati</b>	atrofdagilar bilan munosabatlarini jamiyatda ishlab chiqilgan insonparvar qadriyatlar va me’yorlarga asosan olib borish	culture of speech is the correctly usage of words and sentences, following the standards of word usage and norms of literary language.

## **VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar:**

16. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

17. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

18. Osmolovskaya I. M. Didaktika: uchebnoe posobie. M.: FGBNU. “Institut strategii razvitiya obrazovaniya” RAO, 2021. — 232 s.

19. Sovremennaya didaktika i kachestvo obrazovaniya: problemy i podxody v stanovlenii uchebnoy samostoyatelnosti: materialy XII Vserossiyskoy nauchno-metodicheskoy konferensii 30–31 yanvarya 2020 goda / sost. G.V. Klepes. – Krasnoyarsk, 2020. – 160 s.

20. Starovoytova, T. A. Konsepsii i strategii razvitiya pedagogicheskoy nauki i obrazovaniya [Elektronnyy resurs] : uchebno-metodicheskie materialy /T. A. Starovoytova. – Elektron. dannye. – Mogilev : MGU imeni A. A. Kuleshova, 2020.

21. Larina, Ye.N. Metodika prepodavaniya spesialnykh dissiplin [Tekst]:

uchebnoe posobie / Ye.N. Larina. – Voronej: VGPU, 2014. - 111 s.

22. Ganshina, G. V. Metodika prepodavaniya spesialnyx dissiplin : uchebnoe posobie dlya bakalavriata, spesialiteta i magistratury / G. V. Ganshina. - 2-ye izd. Moskva : Izdatelstvo Yurayt ; Moskva : Izd-vo GAOU VO MGPU, 2019. -195 s.

#### **IV. Internet saytlar:**

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET.
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.